Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: **Dinning jamiyatdagi o‘rni va vazifalari**

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Din tushunchasi, dinning mohiyati, dinning paydo bo‘lishi haqidagi ta’limotlarning mohiyati haqida bilimlarga ega bo’lish

b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar:

TK: Dinnig jamiyatdagi o’rni va asosiy vazifalari haqida o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar tuza oladi va mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera olishi va tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish , o’rganilgan tarixiy davrlarga munosabat bildirib, xulosa chiqara olishi**,** qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana olishini singdirish.

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:”Aqliy hujum” ko’rinishlar

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

“ Tezkor savol javoblar”

- Din tushunchasi..
- Dinning mohiyati..
- Dinning paydo bo‘lishi ..

Yangi mavzu bayoni:

Bugungi barkamol avlod barcha bilimlar qatori dunyo xalqlari dinlaridan ham xabardor bo’lmog’i lozim.

Siz 10- sinf “ Dinlari tarixi”ni o’rganish jarayonida diniy tasavvur, din nima ekanligi va ularning qanday paydo bo’lganligi hamda har bir dinning o’ziga xos ta’limoti, urf-odatlari va bayramlari haqida bilib olasiz.

O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining konstitutsion ta’minlanishi fuqarolarda din va diniy qadriyatlarga nisbatan adolatli va xolisona munosabatni belgilash imkoniyatini yaratdi.

Yangi tahrirdaga qonun Respublikamiz Konstitutsiyasi tamoyillariga asoslanib, vijdon erkinligini amalga oshirishning oqilona demokratik yechimini topdi. Qonun fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tikod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlamoqda.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan ma’naviy omillar tobora birinchi o‘ringa chiqib borayotgan hozirgi sharoitda xalqimizda, xususan yoshlarda din va undagi real qadriyatlarga ma’naviy madaniyatning bir qismi sifatida qarash shakllanmoqda. Yoshlarda milliy va diniy qadriyatlar hamda dinlar tarixini o‘rganishga qiziqish ehtiyoji ortmoqda. Hozirgi zamon fani va ilg‘or qarashlari asosida tayyorlangan ushbu «Dinshunoslik» o‘quv qo‘lanmasi talabalarga ibtidoiy dindan tortib jahon dinlarigacha, ularning kelib chiqishi, mohiyati, tarixi, evolyusiyasi, hozirgi holati, insoniyat hayotidagi tutgan o‘rni haqida umumiy ilmiy ma’lumot berishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi an’anaviy islom dini keng tarqalgan xududlardan ekanligini hisobga olib, bu mintaqada VIII asrdan boshlab islom yagona hukmron dinga aylanganligi sababli uning shaxs, oila, jamiyat hayotiga kirib borishi, madaniyati va ma’naviyatni boyitishga qo‘shgan xissasi xususida yoshlarni ilmiy, falsafiy, binobarin dunyoviy bilimlar bilan kengroq, batafsil qurollantirish ko‘zda tutiladi. Talabalarga islom ma’naviyati, milliy va diniy qadriyatlarni tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlarga uyg‘unlashishi, hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyatini tushuntirish tavsiya etiladi. Shuningdek, Milliy g‘oya va axloqiy madaniyatni shakllantirishning diniy ildizlari izohlanadi.

Milliy va islomiy kadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashishi kabi muammolarga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Mazkur qo‘llanma talabalarda din, uning turli shakllari, ta’limotlari, yo‘nalishlari, mazhablari haqida ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniylik va dunyoviylik munosabatlarini asosli taxlil qila oladigan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan.

Mustahkamlash:

Jamiyat nima?

Dinning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida ESSE yozing.

Din haqida va dinga munosabat haqida o’quvchilar fikri so’raladi hamda o’qituvchi ular fikrini xulosalaydi, to’ldiradi

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: **Fan va din**

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Din va uning mohiyati haqida bilimlarga ega bo’lish

b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash, insonparvarlik kabi tuyg’ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish, dunyoqarashlarini kengaytirish.

TK: Fan va din tushunchasi. Dinning mohiyati. Dinning paydo bo‘lishi haqidagi ta’limotlarning mohiyati haqida o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar tuza oladi va mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera oladi.

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi: o’rganilgan tarixiy davrlarga munosabat bildirib, xulosa chiqara oladi

Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi; qo’shimcha adabiyot va -manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:”Aqliy hujum”

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

-Din, diniy tasavvurlar deganda nimani tushunasiz?

-Dinlarning kelib chiqishi tarixini bilish nima uchun zarur deb o'ylaysiz?

-Mustaqillik yillarida dinga munosabat qay darajada o'zgardi?

-Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?

-“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun haqida nimalarni bilasiz?

Yangi mavzu bayoni:

Din haqida.

Odamlar yashab kelayotgan davrlardan beri din ham yashab kelmoqda.

Dinning nima ekani haqida («din» arabcha so’z bo’lib, O’zbek tilida “ishonch” “itoat”», “jazo” degan ma’nolarni anglatadi) jamiyatda yagona fikr mavjud emas.

Ulamolar fikricha - din Alloh tomonidan o’z payg’ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo’lgan ilohiy qonunlardir. U azaldan insonning Alloh bilan aloqa qilish ehtiyojidir.

Din - tabiat, jamiyat, inson va uning ongini, yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo’lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir «to’g’ri», “haqiqat” va «odil» hayot yo’lini ko’rsatadigan va o’rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta’limotdir.

Dunyoviy nuqti nazar bo’yicha esa din - ijtimoiy-tarixiy hodisa. Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma’lum bosqichida paydo bo’lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri.

Din - muayyan talimotlar, xis-tuyg’ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo’ladigan, olam, xayot yaralishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o’ziga xos usuli. Olamda insoniyat paydo bo’lganidan to bizgacha o’tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks ettirishdir.

Dinning nima ekanligi turlicha izoxlansa-da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoqlik tuyg’usidir. Bu tuyg’u insonning eng teran va go’zal ruxiy-ma’naviy extiyojlaridandir.

Demak, dunyoda dini, ishonchi bo’lmagan xalq yo’q. Chunki, biror-bir xalq dinsiz, e’tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi.

Din - xalq tili, qadimiy madaniyati, an'ana, odatlari bilan barobar turadigan bebaho qadriyat. U xalqlarning dunyoqarashi va tafakkuriga bevosita ta'sir etib kelgan. Shuning uchun ham u o zlikni anglash omili va milliy g'oya asoslaridan biridir. Chunki, jahon dinlari ta limotida insonparvarlikka xizmat qiluvchi umumiy qarashlar va g'oyalar ko'p.

Din ta'limotlar, his-tuyg'ular. toat-ibodatlar va diniy tashkilotlaming faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g' risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarining yaxlit bir tizimidir.

U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok

etishning o'ziga xos usuli bo'lib. insoniyatning ilk tarixidan to hozirgacha bo'lgan davming ilohiy tasavvurda aks etishidir.
Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli qudratga ega ma'naviy-axloqiy kuch.
Din- bu, ishonish tuyg'usidir. Butuyg'u insoniyatning eng teran va go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridan biridir.
Dunyoda dini, ishonchi bo'lmagan xalq yo'q. Xalq dinsiz, e'tiqodsiz, ishonchsiz yashay olmaydi. Chunki, dinlardagi barcha qarashlar ezgulikka yo'nalgan. Umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan xuddi shu jihat dinning ma'rifiy mohiyatini tashkil etadi hamda inson shaxsini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Demak, ” Dinlari tarixi” fanining amaliy ahamiyati insonlarda dunyo dinlari qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ulami qadrlash, turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarga yaxshi munosabatda bo'lish xislatlarini tarbiyalashdan iborat. Fan va din uzviy bog’liq bir birini to’ldirib turadi.

Mustahkamlash:

Din haqida va o’quvchilarnning dinga munosabati so’raladi hamda o’qituvchi ular fikrini xulosalaydi, to’ldiradi

-Din deganda nimani tushundingiz?

-Komil insonni tarbiyalashda dinning o'rni qanday?

-Din va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

-“Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lib kelgan”. Mazkur jumlaga o'z munosabatingizni bildiring.

"*...yaxshi iz qoldirish ”* degan jumlani kelgusida tanlaydigan kasbingiz bilan aloqasi bormi? Kelajakda kim bo'lmoqchisiz

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi

.**Uyga vazifa:** Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X _____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Dinning paydo bo’lishi va shakillari.

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Dinning paydo bo’lishi va shakillari haqida bilimlarga ega bo’lish

b)Tarbiyaviy maqsad: Umuminsoniy qadryatlarni qadrlash tuyg’ularini shakllantirish.

c)Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish, dunyoqarashlarini kengaytirish.

TK : Dunyo dinlarining tasnifi: urug‘-qabila, milliy va jahon dinlari haqida o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar tuza oladi va mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera oladi.

-milliy va umuminsoniy kompetensiya xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, ta’lim muassasasida va jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olishi, tarixiy-geografik makon haqida ma’lumot bera oladi
- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi; qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:”Tarmoqlar”(Klaster)

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Tezkor savol javoblar

-Din deganda nimani tushundingiz?

-Komil insonni tarbiyalashda dinning o'rni qanday?

-Din va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

Yangi mavzu bayoni:

Muayyan millat va elat doirasidagina tarqalib, boshqa xalqlarni qabul qilmaydigan dinlar **“milliy dinlar”** deb ataladi. Milliy dinlarga hinduiylik (*indnizm*), sintoiylik *(sintoizm),* konfutsiylik (*konfiitsizm*), yahudiylik *(iudciizm),* jayniylik *(jctynizm),* sikxiylik (*sikxizm)* kabi dinlar kiradi.Millati, tili, irqi, tug'ilgan joyidan qat'i nazar turli millat vakillari e'tiqod qilishlari mumkin bo lgan dinlar **“jahon dinlari”** deb ataladi.

Buddaviylik, xristianlik va islom jahon dinlaridir. Barcha ilmiy adabiyotlarda dinning paydo bo'lishi borasida bildirilgan fikrlar ilmiy gepotezalardan iborat. Diniy manbalardagi ta'limotlami qabul qilish yoki qilmaslik har bir insonning diniy e'tiqodiga bog'liq.

Hozir dunyoda200 dan ortiq dav- lat bo'lib. ularda 6 mlrd.dan ortiq aholi yashamoqda. Ular turli tillarda so'zlashadilar. Ayni paytda, turli dinlarga e'tiqod qiladilar

Urug‘-qabila dinlari:

- animizm;
- totemizm;
- fetishizm;
- shamanizm va sehrgarlik.

Milliy dinlar:


- yahudiylik (yahudiy millatiga xos);

- hinduilik (hindlarga xos);
- konfutsiylik (xitoy millatiga xos);
- sintoiylik (yaponlarga xos) va boshqalar.
- **Jahon dinlari:**
- buddaviylik;
- xristianlik;
-*islom.*

Mustahkamlash:O’quvchilarga xarita asosida xalqlarni diniy e’tiqodlari haqida fikrlari so’ralib, o’qituvchi ular fikrini xulosalaydi, to’ldiradi

Fan nima?

- Fan va dinning bog’liqligi?



1.Din deganda nimani tushundingiz?

-Komil insonni tarbiyalashda dinning o'rni qanday?

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.Atamalarni yod olish.
Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Takrorlash .Nazorat ishi

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilar o'tilgan mavzular bo'yicha egallagan bilimlarini tekchirish, mustahkamlash

Tarbiyaviy: o'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish,

tahlil qilsh qobiliyatlarini rivojlantirish

FK-- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi: o’rganilgan tarixiy davrlarga munosabat bildirib, xulosa chiqara oladi;

- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. eng qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha kechgan tarixiy voqelikni bayon qilishda muhim bo’lgan tarixiy toponomik atamalar mazmunini tushuntira oladi

Dars turi: Takrorlash Nazorat darsi

Dars usuli: Yozma ish. Test

Dars jihozi: darslik, savollar,tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism : O’quvchilarni darsga tayyorlash.

Navbatchi axboroti

O'tilgan mavzuni so'rash: Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Dinlar	Jahon dinlari	Milliy dinlar	Urug'-qabila dinlari
Buddaviylik			
Xristianlik			
Islom			
Yahudiylik			
Sintoiylik			
Fetishizm			
Animizm			
Totemizm			
Shamanizm			

Yangi mavzu bayoni:

1. Jahonda e’tiqod qiluvchilar soni jihatidan eng katta milliy din qaysi?

a) yahudiylik b) sintoiylik

c) konfutsiylik d) hinduiylik

2. Yahudiylik dinining asosiy aqidasi nimaga bo‘lgan ishonchdan iborat?

a) messiyaning kelishiga

b) oxiratga

c) yahudiy xalqining xudo tomonidan tanlanganligiga

d) yagona xudo Yahvega

3. Dinning ibtidoiy shakllari qaysilar?

a) sehrgarlik, yahudiylik, jayniylik, zardushtiylik

b) fetishizm, qabila boshliqlarining shaxsiga sig‘inish
c) totemizm, sintoiylik, tabiatni ilohiylashtirish
d) fetishizm, totemizm, sehrgarlik, animizm, shamanizm

4. Asosan bir millat va elat vakillari qanday dinga e’tiqod qiladilar?

a) dunyoviy b) urug‘-qabila
c) yakka xudolik d) milliy

5. Hinduiylik dinining asosiy xudolarini belgilang.

a) Shan-di, Lao-szi, Pan-gu b) Jinna, Nanak, Gaumata
c) Amaterasu, Yahve, Mitra d) Braxma, Vishnu, Shiva

6. Sikxiylikning muqaddas kitobi qaysi?

a) Tripitaka b) Adigrantx
c) Avesto d) Vedalar

7. Sintoiylik din sifatida qachon shakllandi?

a) VI-VII asrlarda b) III-IV asrlarda
c) I-II asrlarda d) mil. A vv. IV-III asrlarida

Mustahkamlash: *Javoblar btahlili asosida.O’z*aro savol javob`

1 .MONIY ibn Fatak faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2.Moniylik dinini arkoni nima?
3.Moniylik dini qayerda keng tarqalgan?

O`quvchilarni baholash: baholarni e’lon qilish,barcha oquvchi baholanadi.

Uyga vazifa: Takrorlash, mustahkamlash.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X _____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Yahudiylik

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Yahudiylik haqida bilimlarga ega bo’lish
b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish, o'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash
c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish, tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK- Yahudiylik tarixi. Yahudiylik ta’limoti va uning tarqalishi. Mamlakatimiz hududiga yahudiylarning kirib kelishi. Yahudiylikning muqaddas manbalari. Payg‘ambarlar haqidagi rivoyatlar haqida o‘z fikrini og‘zaki bayon qila oladi, mavzudan kelib chiqib savollar tuza oladi va mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera oladi.

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi: yaxudiy xalqining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi;
- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.
Dars metodi:”Aqliy hujum”, “Baliq skleti”
Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material
Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

“ Tezkor test”

1. Jahonda e’tiqod qiluvchilar soni jihatidan eng katta milliy din qaysi?

a) yahudiylik b) sintoiylik
c) konfutsiylik d) hinduiylik

2. Yahudiylik dinining asosiy aqidasi nimaga bo‘lgan ishonchdan iborat?

a) messiyaning kelishiga
b) oxiratga
c) yahudiy xalqining xudo tomonidan tanlanganligiga
d) yagona xudo Yahvega

3. Dinning ibtidoiy shakllari qaysilar?

a) sehrgarlik, yahudiylik, jayniylik, zardushtiylik
b) fetishizm, qabila boshliqlarining shaxsiga sig‘inish
c) totemizm, sintoiylik, tabiatni ilohiylashtirish
d) fetishizm, totemizm, sehrgarlik, animizm, shamanizm

Yangi mavzu bayoni:

Milliy dinlarning o‘ziga xos xususiyati – ularga faqat muayyan millat va elat vakillarining e’tiqod qilishlaridir. Bu dinlar ko‘proq milly xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Ulardan biri yahudiylik dinidir.

Yahudiylik dunyodagi eng qadimiy milliy dinlardan biri bo‘lib, u taxminan miloddan avvalgi 2-ming yillikda Yaqin Sharqda paydo bo‘lgan.

Birinchi bor yahudiy xalqini birlashtirib, Isroil – Yahudiya davlatini barpo qilgan shaxs – Dovud (miloddan avvalgi 1004–965-yy.) edi. Yahudiylar yagona xudo Yahvega sig‘inganlar. Miloddan avvalgi X asrdan boshlab yahudiylik davlat diniga

aylangan. Yahudiy davlati podshosi Sulaymon miloddan avvalgi X asrda hashamatli Yahve ibodatxonasini qurdirgan.

Ushbu din ta’limotiga ko‘ra, Xudo 400 yil davomida Misrda qullikda saqlanib kelgan Isroil avlodlarini ozod qilishni Muso (Moshe) payg‘ambarga yuklagan. Muso ularni Misr yerlaridan olib chiqib ketgan.

Musoga Sinay tog‘ida Xudo tomonidan Tavrot kitobi nozil qilingan deb hisoblanadi.

Yahudiy so‘zining kelib chiqishi ularning bobokalonlaridan bo‘lgan Yahudo nomidan olingan.

Tanax va Talmud yahudiylikning muqaddas manbalaridir. Tanax Xudo tomonidan Muso payg‘ambarga Tur tog‘ida taxminan mil. avv. 1571-yilda nozil qilingan, deb ta’kidlanadi. Talmud yahudiylar uchun Tavrot kabi ahamiyatga ega bo‘lib, diniy manba sifatida tan olinadi. Talmud ovqatlanish, kiyinish, ozodalik, kun tartibi, ibodatlar, marosimlar va bayramlarga taalluqli masalalarni o‘z ichiga olgan.

Talmudda yahudiylik marosimlari tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek, unda yahudiylar butun umri davomida qat’iy amal qilishi va bajarishi lozim bo‘lgan 248 ta buyruq va 365 ta taqiq ham mavjud. Yahudiylikda diniylik va milliylik o‘zaro birlashib ketgan bo‘lib, ularni bir-biridan alohida tushunish mumkin emas. Bu dinda nasl-nasabning otaga emas, balki onaga qarab belgilanishi tartibi o‘rnatilgan.

Yahudiylikda Xudo tomonidan Musoga nozil qilingan “O‘n amr”ga katta e’tibor qaratiladi. Shanba kunini muqaddas deb bilish yahudiylikda eng muhim e’tiqodlardan biridir. Bu kunda dam olish shart hisoblanadi. Shu e’tiqodga ko‘ra, yer, ya’ni tuproq ham har yetti yilda bir marta dam olishi kerak. Yahudiylik ta’limoti asosida yakkaxudolik g‘oyasi yotadi. Diniy marosim va bayramlar yahudiylik ibodatxonasi – sinagogalarda amalga oshiriladi Yahudiyllar qadimgi dunyoda va o‘rta asrlarda dastlab Rim, keyinchalik Vizantiya imperiyasida ayovsiz siquvga olinib, quvg‘in qilingan. Markaziy Osiyoda esa yahudiylik boshqa dinlar qatori teng huquqqa ega bo‘lgan. Bu esa yahudiylikning Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelishiga sabab bo‘lgan.

Yahudiylar Markaziy Osiyoda Yahudiyllar qadimgi dunyoda va o‘rta asrlarda dastlab Rim, keyinchalik Vizantiya imperiyasida ayovsiz siquvga olinib, quvg‘in qilingan. Markaziy Osiyoda esa yahudiylik boshqa dinlar qatori teng huquqqa ega bo‘lgan. Bu esa yahudiylikning Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Yahudiylarning Markaziy Osiyo mintaqasida uzoq vaqt mobaynida tinch-totuv yashashi va bu yerlarga bog‘lanib qolishi ularning tarkibida “Buxoro yahudiylari” deb ataladigan qatlamni vujudga keltirdi. Buxorodagi ilk sinagoga VIII asrda qurilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshqa diniy konfessiyalar qatorida yahudiylar jamoasi ham ro‘yxatdan o‘tgan. Yahudiylar, asosan, Buxoro, Samarqand va Toshkent kabi yirik shaharlarda istiqomat qiladilar.

Mustahkamlash: Quyidagi matnni o‘qing.

1. Mazkur qoidalarning jamiyat rivoji va tinchligiga qanday ta’siri bor? Fikringizni asoslang.
2. Ushbu qoidalarni “Haq va haqiqat, insof va adolat, halollik, to‘g‘rilik” kabi tamoyillar bilan bog‘lab ko‘ring.

Muso payg‘ambarga Tur tog‘ida tushirilgan “O‘n amr”:

1. Dunyoni yaratgan, yakka-yu yagona Yahvedan boshqa iloh yo‘qligiga imon keltirish;
2. Yahvedan boshqaga ibodat qilmaslik;
3. Xudoning nomini bo‘lar-bo‘lmasga tilga olavermaslik;
4. Shanba kunini muqaddas bilish va shu kuni dam olish;

5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Qotillik qilmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O‘g‘rilik qilmaslik;
9. O‘z yaqinlari (yahudiylar) haqqiga yolg‘on guvohlik bermaslik;
10. O‘z yaqinlari uyiga, ayoliga, quliga, hayvonlariga, umuman unga tegishli bo‘lgan narsalarga ko‘z olaytirmaslik.
O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.
Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Yahudiylik ta’limoti

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Yahudiylik haqida bilimlarga ega bo’lish
b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish, o'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash
c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish, tahlil qilsh qobiliyatlarini rivojlantirish.Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK- Yahudiylik tarixi. Yahudiylik ta’limoti va uning tarqalishi. Mamlakatimiz hududiga yahudiylarning kirib kelishi. Yahudiylikning muqaddas manbalari. Payg‘ambarlar haqidagi rivoyatlar haqidagi fikrlari bilan dars jarayonida faol ishtirok etadi,tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi: yaxudiy xalqining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi;
- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;
Dars turi: Yangi tushuncha berish.
Dars metodi:”Aqliy hujum”
Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material
Darsning borishi:
Tashkiliy qism:
a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so’rash
O`tilgan mavzuni mustahkamlash.
“ Tezkor savol javoblar”
1. Mazkur qoidalarning jamiyat rivoji va tinchligiga qanday ta’siri bor? Fikringizni asoslang.
2. Ushbu qoidalarni “Haq va haqiqat, insof va adolat, halollik, to‘g‘rilik” kabi tamoyillar bilan bog‘lab ko‘ring.
.

Yangi mavzu bayoni:

Yahudiylik (Iudaizm) dini Falastinda miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlari - I ming yillikning boshlarida vujudga kelgan. «Iudaizm» atamasi yahudiy qabilalar ittifoqiga kirgan (Ruvit, Simon, Levin va Iuda singari) 12 qabilaning eng kattasi nomidan olingan. Miloddan avvalgi X asrda ular Iuda qabilasi atrofida birlashtirilgan. Qabila vakili Dovud Isroil-yahudiy davlatining podshohi lavozimini egallagan. Miloddan avvalgi XIII asrda yahudiy ko‘chmanchi qabilalari Falastinga bostirib kelishiga qadar totemizm, animizm va sehrgarlik avj olgan va ko‘pxudolik amalda mavjud bo‘lgan. Yahudiylarning diniy e’tiqodida yakkaxudolik g‘oyalari Falastinni bosib olganidan keyin shakllana boshlagan. Bu jarayon uzoq vaqt davom etgan.

Dastlab bosh xudo sifatida Yaxve (Iyegova) tog‘lar, chaqmoq, momaqaldiroq va suv

xudosi qabul qilingan bo‘lsada, aholi ko‘p xudolik an’analarini saqlab qolgan. Miloddan avvalgi 622 yilda podsho Iosif ko‘p xudolik amaliyotini tugatish maqsadida Yaxvedan boshqa xudolarga sig‘inishni bekor qilgan. Lekin yakkaxudolikni joriy qilish maqsadida davlat tomonidan ko‘rilgan choralar ham samara bermagan. Miloddan avvalgi 586 yilda Yangi Bobil podshosi Navuxodonosor Iudeyani bosib olganidan keyin vaziyat tubdan o‘zgargan. Navuxodonosorning buyrug‘i bilan Quddusdagi iudaizmning bosh ibodatxonasi vayron qilingan. Yahudiylarning bir qismi Mesopotamiyaga majburan ko‘chirilgan. Isroilda mustaqillik uchun kurash boshlangan. Iudaizm dini yahudiylarning davlat mustaqilligini qayta tiklash va majburan ko‘chirib yuborilgan yurtdoshlarini Vataniga qaytarish uchun kurashida (diaspora) mafkura vazifasini bajargan. Shu vaqtdan boshlab yakkaxudolik g‘oyasi yahudiylarni birlashtiruvchi diniy mafkura sifatida jamiyatda mustahkamlangan.

Diniy aqidalarni tafsir qilish keyingi davrlarda ham davom ettirilgan. O‘rta asrlarda iudaizm o‘zining eski mazmunini saqlab qolgan holda biroz o‘zgargan. XI-XII asrlarda iudaizmda hukmronlik qilgan ravvinlar uning ko‘p tomonlarini qayta ishlab chiqqanlar.

Hozirgi davrda iudaizm Isroil davlatida asosiy din bo‘lsada, davlat dini maqomiga ega emas. Shunga qaramasdan, u davlatning madadiga tayanadi.

Yahudiylik (Iudaizm) dini aqidalari va marosimlari muqaddas manbalarda bayon qilingan. Ular muqaddas bitiklar (Tanak) va muqaddas rivoyatlar (Talmud - qadimgi yaxudiy tilida lameyd - o‘rganish degan ma’noni anglatadi)ga bo‘linadi.

Tanak - xristianlikning muqaddas kitobi Injil (Bibliya)ning Eski ahd qismiga kiritilgan. Tanak manbalarda Tavrot deb qayd etiladi. Tavrot miloddan avvalgi X-V asrlarda yozilgan va quyidagi kitoblardan iborat: Borliq, Chiqish, Loviy, Sonlar, Ikkinchi qonun.

Miloddan avvalgi V asrda muqaddas bitik yagona to‘plam sifatida dastxat qilingan. Tavrotning qismlarida Yaxvening yagonaligi, olamning yaratilishi, Adam va Yevaning jannatdan quvilganligi, ularning avlodlarini sarguzashtlari hamda xudo bilan murakkab munosabatlari tasvirlangan. Muqaddas manbalarda qayd etilgan rivoyatlarga binoan, payg‘ambar Muso (Moisey)ga Sinay tog‘ida xudo Yaxvedan vahiy kelgan. Xudo Yaxve uning vositachiligida yahudiy xalqi bilan ahdnoma «zavet» tuzishni taklif etgan. Ahdnomaning asosini ikkita shart tashkil etadi.

Birinchisi - yahudiy xalqi Yaxveni xudolarning eng qudratlisi emas, balki yagona xudo, borliqning yaratuvchisi va unda yuz berayotgan hodisalarni belgilovchi sifatida tan olishi lozim.

Ikkinchisi - yahudiylarga Yaxvega sodiqligini isbotlasa, xudoning nazari tushgan xalq imtiyozi beriladi va uning himoyasida bo‘ladi. Yahudiylar xudoning sevimli bandasi bo‘lib, ularga yerda insonparvarlik, tenglik, farovonlik, hamjihatlik va boqiy hayotga hukmron ilohiy jamiyatni qurish messiyasini bajaruvchi xalq mas’uliyati yuklatilganligi aqidasi mavjud. Binobarin, unga asoslanib ravvinlar (qadimgi yahudiy tilida rabbi - mening ustozim degan ma’noni anglatadi), ya’ni ruhoniylar miloddan avvalgi 444 yilda yahudiylarning boshqa xalqlar bilan quda-andachilik munosabati o‘rnatishini taqiqlovchi qonun qabul qilinishiga erishganlar. Masalaning diqqatga sazovor jihati shundaki, bir tomondan, bu qonun yahudiylarni boshqa xalqlarga qarshi qo‘yish (hatto ularning ta’qibi)ga sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xalqni qiyin sinovlarni yengib o‘tish yo‘lida jipslashtiruvchi vosita vazifasini bajargan. Yaxve Musaga Sinay tog‘ida «ahdnoma» bergan. Ahdnomaning mazmuni Tavrotning «Chiqish» va «Ikkinchi qonun» qismlarida qayd etilgan. U o‘nta diniy aqidalar, axloqiy-huquqiy normalardan tuzilgan. Ular quyidagilardan iborat:

-Faqat Yaxvega sig‘inish;
-Yaxvedan boshqa osmondagi, yerdagi, suvdagi yoki undan pastda turgan narsalar va mavjudotlarni ilohiylashtirmaslik, ularning butlarini yaratmaslik va sig‘inmaslik;
-xudoning nomini besabab tilga olmaslik;
-haftaning olti kunida ishlab, shanba kunida xudoga sig‘inishni unutmaslik (zero, xudo dunyoni olti kun davomida yaratib, yettinchi kunida fatvo bergan va uni muqaddaslashtirgan);
-ota-onani hurmat qilish;
-odam o‘ldirmaslik;

-zino qilmaslik;
-o‘g‘rilik qilmaslik;
-yaqin kishilarga yolg‘on guvohlik bermaslik;
-yaqin kishilarning haqiga xiyonat qilmaslik.

Iudaizmda yahudiylarning kundalik turmushi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga katta e’tibor beriladi. Masalan, har bir dindor taom iste’mol qilish, jinsiy munosabatlar, jamoat joylari, ibodatxonalardagi xulq-atvor qoidalari va hokazolarni tartibga soladigan 365 ta taqiq va 248 ta buyruqlarni yoddan bilishi kerak. Mazkur dinda diniy bayramlarga alohida e’tibor beriladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat: shabbat (shanbalik) - dam olish kuni va bunda har qanday ijtimoiy faoliyat taqiqlanadi; yom kippur (cheklanish kuni) - bir kunlik ro‘za, tavba-tazarru qilish; pesax (pasxa) - bahorning boshlanishi bayrami va hokazolar.

Iudaizmda diniy tashkilot tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o‘zgarib borgan. Dastlab dindorlar jamoalariga kohinlar rahbarlik qilganlar. Diniy hayot Yaxve (Quddus) ibodatxonasida markazlashtirilgan. Diaspora davri boshlanganidan keyin diniy hayotda sinagoga - ravvin (ustoz) rahbarligidagi dindorlar jamoasi tuzilgan.

Mustahkamlash:

1.Yahudiylik dini qayerda va qachon paydo bo’lgan?
2.Yahudiylik dinini tarqalishi qanday kechgan?
3.Yahudiylik dinining asosini nima tashkil etadi?
4.Yahudiylik dinining payg’ambari kim?
5.Hozirgi kunda dinning ahvoli?

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish, dartsni qisqa bayonini daftarga qayd etish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Takrorlash

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Mavzu haqida bilimlarga ega bo’lish
b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.
c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar: I. TK-tayanch kompetensiya

1.TK3- O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib boradi, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi;

o‘z hatti-harakatini adekvat baholaydi, o‘zini nazorat qila biladi,halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘ladi.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1.FK1- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi: Eng qadimgi diniy tasavvurlar, urug‘ qabila va milliy dinlar, jahon dinlari, hamda Dinning funksiyalari haqida ma’lumot bera oladi.tarixiy-geografik makon haqida ma’lumot bera oladi;

Dars turi: Takrorlash

Dars metodi:”Aqliy hujum”

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jumlarni o‘qing: Birinchi jumladagi “insonparvarlik va o‘z burchini his etish” iborasini bugungi kun bilan bog‘lang.
Har ikki jumlaning jamiyat rivoji va farovonligiga qanday ta’siri bor? Bu matnlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?
1. Konfutsiy tasavvur etgan ideal inson eng muhim ikki fazilatga – insonparvarlik va o‘z burchini his etishga – ega bo‘lishi lozim.
2. “Podsho – podsholigicha, fuqaro – fuqaroligicha, ota – otaligicha, farzand – farzandligicha qolishi kerak”.
1. Konfutsiylikning axloq normalaridan qanday xulosalar chiqardingiz?
2. Sintoiylik ta’limotining mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mavzu jarayonida ijodiy ishlash.Men bilgan din.

Mustahkamlash:

“Munosabat”
Ahmoqona fikri yo‘q kishi ahmoqona ishlarni ham qilmaydi.
Fikrsiz ilm foydasiz mehnat.
Boshqalarni yenguvchi kuchlidir, o‘zini yenguvchi esa qudratlidir.
Ishonchi komil bo‘lmagan o‘zgalarni ham ishontira olmaydi.
Fikrlaringizga ehtiyot bo‘ling – ular qilmishlaringiz ibtidosidir.
Lao Szi

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.
Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Buddaviylik

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Buddaviylik tarixi haqida bilimlarga ega bo’lish
b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish, o'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash
c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish, tahlil qilsh qobiliyatlarini rivojlantirish .Tarixiy bilimlarini shakllantirish
TK-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: Buddaviylik dinining asoschisi, muqaddas manbalari, tarqalishi, yo‘nalishlari. Mamlakatimiz tarixida buddaviylik dini haqidagi fikrlari bilan dars jarayonida faol ishtirok etadi.

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi: Hind xalqining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi;
- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.
Dars metodi:”Aqliy hujum” , Klaster

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material
Darsning borishi:
Tashkiliy qism:
a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so'rash
O`tilgan mavzuni mustahkamlash. .
Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering.
1. Buddaviylik dini qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Bugungi kunda mazkur dinga e'tiqod qiluvchilar sonini bilasizmi?
3. Buddaviylik dini tarqalgan mamlakatlarni dunyo xaritasidan ko'rsating.
4. Nima uchun bu din jahon dini deyiladi?
5. Bizning o'lkamizga buddaviylik dini qachon kirib kelgan?
6. Buyuk ipak yo'lining buddaviylik dini tarqalishidagi o'rnini tushuntirib bering.

Yangi mavzu bayoni:

Buddaviylik (buddizm) miloddan avvalgi VI-V asrlarda Shimoliy Hindistonda vujudga keldi.
Buddaviylikning asoschisi Siddhartha (sanskritcha "ezguliklar keltiruvchi") Gautama Shakyamuni (mil. avv. 567-488-yy.) tarixiy shaxs bo'lib, Hindiston va Nepal chegarasidagi Kapilavasta viloyatining Shakya qabilasi hukmdori oilasida tug'ilgan. Manbalarda uning ot minish, ov qilish, yugurish, kurash, she'r o'qish, husnixat va boshqa sohalarda mahoratli bo'lgani qayd etiladi.
Rivoyatlarga ko'ra, kunlarning birida shahzoda Sidd-hartha o'z saroyidan tashqariga chiqib, azob-uqubat, kasallik, qarilik va o'lim haqidagi haqiqatlarni kuzatgan. Shundan so'ng u umrini insonlar boshiga tushadigan azob-uqubatlar sabablarini o'rganish va insoniyatni ulardan xalos qilish uchun bag'ishlashga qaror qilib, oilasini tark etadi.
Olti yil davomida u Ganga daryosi qirg'oqlarida rohiblar orasida zohidona hayot kechiradi. Siddhartha bu yo'l uni o'z oldiga qo'ygan maqsad, ya'ni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormasligiga amin bo'lgach, rohiblar jamoasidan ajraladi. Budda umrining so'nggi kunlarigacha Hindistonning turli joylarida bo'lib, o'z ta'limotini kishilarga yetkazishga harakat qildi va 80 yoshida dunyodan o'tdi. Buddaning jasadi kuydirilib, xoki sakkiz buddaviy jamoaga yuborildi. *Hind podsholari Magadxi Bimbisare va Ajatashat-runing buddaviylikni qabul qilishi, keyinchalik imperator Ashoka va Kanishkaning qo'llab-quvvatlashi natijasida buddaviylik davlat dini darajasiga ko'tarildi. Buddaviy rohiblar jamoasi – "sangha" shakllandi.*

1950-yilda "Jahon buddaviylari birodarligi" – xalqaro diniy tashkiloti tuzilgan. Tashkilot tomonidan nashr etiladigan byulleten, kitob va risolalarda tinchlik uchun, yadro qurolini tugatish, turli davlatlar o'rtasidagi mojaroli masalalarni muzokaralar yo'li bilan hal etish uchun kurashish g'oyalari o'z aksini topgan.
1956-yilda dunyo buddaviylari o'z dinlarining 2500 yilligini nishonladilar.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, Budda 84 marta ruhoniy, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon qiyofalarida 550 marta qayta tug'ilgan.

Rivoyat qilinishicha, Siddhartha 35 yoshida meditatsiya (lotincha – fikrlayapman, o'ylayapman, diqqatni bir joyga to'plab, ongini oliy haqiqatga erishish) qilish uchun bir daraxtning ostida dam olib o'tiradi va haqiqatni topmaguncha u yerdan turmaslikka qaror qiladi. Bu o'tirishning 49-kuni uning qalbidan "Sen haqiqatni topding" degan sado keladi. Siddhartha maqsadiga erishib, koinotning barcha sir-asroridan voqif bo'lgach, "Budda" (sanskritcha –

nurlangan, ma’rifatlangan oliy haqiqatga erishgan) ga aylangan, deb e’tirof etiladi. Shundan kelib chiqib, Budda soyasida dam olgan daraxt “boddxa” (sanskritcha – nurlangan daraxt) deb ataladi.
“Xinayana” (sanskritcha) – kichik g‘ildirak,
“Mahayana” esa “katta g‘ildirak”, degan ma’nolarni anglatadi.
Baxtdan lazzatla-nish – buyuk saodat. Baxtni o‘zgalarga tuhfa etish esa undanda buyukroq ezgulikdir.
Frensis Bekon

Budda fikricha, inson “Pancha shila” (sanskritcha – besh nasihat)ga amal qilishi, ya’ni qotillik va o‘g‘rilik qilmasligi, gumrohlikka yo‘l qo‘ymasligi, yolg‘on so‘zlamasligi va mast qiluvchi narsalardan saqlanishi lozim.

Xitoylik Syuan Szyanning yozib qoldirishicha, VII asrning boshlarida Termizda 10 ta buddaviylik ibodatxonalari va ming nafar rohib bo‘lgan.

Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubi-Sharqiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari – Shri Lanka, Hindiston, Birma, Tailand, Laos, Mo‘g‘uliston, Kambodja, Vetnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Yevropa va Amerika qit’asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya, Qalmiqiston kabi hududlarida keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo‘nalishlariga e’tiqod qilishadi.
Aql shunday xazinaki, qancha ko‘p ishlatsangiz, shuncha to‘lishib boradi.
Mustahkamlash:
Ijodiy faoliyat

“Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma’naviy uyg‘onishning yana bir bitmas-tuganmas manbasidir”.

Islom KARIMOV

Yuqoridagi fikrni diqqat bilan o‘qing va quyidagi savollarga javob bering.
1. “Xalqimizning... diniy sabr bardoshi” degan iborani bag‘rikenglik tushunchalari bilan bog‘lang. Javobingizni buddaviylik mamlakatimiz hududiga kirib kelganida bu yerda mavjud bo‘lgan boshqa dinlar bilan munosabati asosida izohlang.
2. Buddaviylik dini mamlakatimiz xalqlari tarixida qanday ahamiyat kasb etgan?
Aql shunday xazinaki, qancha ko‘p ishlatsangiz, shuncha to‘lishib boradi.
Darslikning birinchi mavzusi asosida qanday dinlarga jahon dini deyilishi va ularga qanday xususiyatlar xosligini eslang.
2. Buddaviylik dini qanday sabablarga ko‘ra vujudga keldi va tezda shuhrat qozona oldi?
3. Siddhartha Gautama haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Nima uchun Siddhartha shohona hayotdan voz kechdi?
5. Quyidagi rasmlardagi yodgorliklar Fayoztepadan topilganini e’tiborga olib, mamlakatimiz hududida madaniyat, san’at va me’morchilikning rivojlanishi haqida hikoya qiling.
O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.
Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.Ijodiy ish

Ko’rib chiqildi _____ X.Boltaboyeva

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Buddaviylik ta’limoti

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Buddaviylik ta’limoti va yo‘nalishlari haqida bilimlarga

ega bo’lish
b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish, o'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash
c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish, tahlil qilsh qobiliyatlarini rivojlantirish .Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK- Buddaviylikning jahon diniga aylanishi. Buddaviylik ta’limoti va marosimlari. Bugungi kundagi ko‘rinishlari haqida o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar tuza oladi va mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera oladi.

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi: Hind xalqining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi.
- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi.

Dars turi: Yangi tushuncha berish.
Dars metodi:”Aqliy hujum” **,** Tushunchalar tahlili
Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material
Darsning borishi:
Tashkiliy qism:
a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

“Voqelikni izohlang”
Yuqoridagi fikrni diqqat bilan o‘qing va quyidagi savollarga javob bering.
1. “Xalqimizning... diniy sabr bardoshi” degan iborani bag‘rikenglik tushunchalari bilan bog‘lang. Javobingizni buddaviylik mamlakatimiz hududiga kirib kelganida bu yerda mavjud bo‘lgan boshqa dinlar bilan munosabati asosida izohlang.
2. Buddaviylik dini mamlakatimiz xalqlari tarixida qanday ahamiyat kasb etgan?
Aql shunday xazinaki, qancha ko‘p ishlatsangiz, shuncha to‘lishib boradi.
Darslikning birinchi mavzusi asosida qanday dinlarga jahon dini deyilishi va ularga qanday xususiyatlar xosligini eslang.
3. Buddaviylik dini qanday sabablarga ko‘ra vujudga keldi va tezda shuhrat qozona oldi?

Yangi mavzu bayoni:

Umuminsoniy g‘oyalarning targ‘ib etilishi hamda har bir millatning Budda ta’limotini o‘z tilida o‘qib-o‘rganishi mumkinligi buddaviylikning jahon bo‘ylab keng tarqalishiga zamin yaratdi.
Milodning birinchi asrlarida buddaviylik butunlay boshqacha tus oldi. Chunonchi, Budda ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko‘tarildi.

Braxmanlik va hinduiylikda kishilar “kasta”larga bo‘linib, odamlar “past” va “oliy” tabaqaga ajratilgan bo‘lsa, Budda “inson kim bo‘lishidan qat’i nazar, tug‘ilishda teng huquqlidir, biri ikkinchisidan ortiq emas”, degan g‘oyani ilgari surdi.

Buddaviylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari barcha jonli narsalarga muhabbat bilan qarashning targ‘ib etilishida, aql ko‘rsatmalariga qat’iy bo‘ysunish va hissiyotga berilmaslikda aks etgan.

Buddaviylikda olamlar va ularga xos xususiyatlar haqidagi qarashlar muhim o‘rin egallaydi. Budda ta’limotiga ko‘ra, olam uch bosqichli bo‘lib, uning birinchisi – eng yuqori mutlaq osoyishtalik hukm suradigan “nirvana”, ikkinchi olam – “rupaloka”, uchinchi olam – “kamaloka” (sanskritcha – do‘zax) eng quyi olamdir.

Budda ta’limotining asosida “hayot – bu, azob-uqubat” va “najot yo‘li mavjud” degan g‘oyalar yotadi. Inson o‘ziga xos mavjudot bo‘lib, u tug‘iladi, o‘zini o‘zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g‘oyalar Budda ilgari surgan quyidagi “To‘rt oliy haqiqat”da o‘z ifodasini topgan:

1. Azob-uqubatning mavjudligi. Bu ta’limotga ko‘ra, dunyodagi har bir narsa, shu jumladan, tug‘ilish, yashash, kasallik, o‘lim va boshqalar azob-uqubatlar hisoblanadi;
2. Azob-uqubatlarning sabablari mavjudligi haqidagi ta’limot. Unga ko‘ra azob-uqubatlarning sababi kishilarning istak-xohishlari, yashashga va baxtga intilishlari, hayotga tashnaliklaridir;
3. Azob-uqubatlarning bartaraf bo‘lishi haqidagi ta’limot. Buning uchun hayotga chanqoqlikdan, turmush ko‘ngilxushliklaridan, lazzatlaridan, hokimiyatga va boylikka intilishdan voz kechish lozim. Ayni paytda, yerdagi hayot hodisalarining barchasi beqaror va o‘tkinchi ekanligini fahmlamoq zarur;
4. Azob-uqubatlardan qutulishning najot yo‘li borligi haqidagi ta’limot. Bu ta’limot mazmunini najotning quyidagi 8 oliyjanob yo‘li tashkil etadi:

1) to‘g‘ri maslak. Bu – donolik bo‘lib, odamlarga hayotning 4 oliy haqiqatini tushunib olishga yordam beradi;
2) to‘g‘ri niyat. Bu – barcha tirik mavjudotga do‘stona munosabatda bo‘lishni, azob-uqubat tortayotganlarga hamdard bo‘lishni, boshqalarning muvaffaqiyatiga beg‘araz munosabatda bo‘lishni, shuningdek, har qanday sharoitda ham ruhan vazmin bo‘lishni anglatar edi;
3) to‘g‘ri yurish-turish. Bu – o‘g‘irlik qilmaslikni, tirik mavjudotni, shu jumladan, odam o‘ldirmaslikni, noqonuniy nikohda bo‘lmaslikni, mast qiluvchi ichimlik ichishdan voz kechishni anglatgan;
4) to‘g‘ri so‘z. Bu – yolg‘on gapirishdan, tuhmat-bo‘htonlardan, fisq-fasod suhbatlardan va mish-mishlardan tiyilishni anglatgan;
5) yashashning to‘g‘ri daromad manbayiga ega bo‘lish. Bu – qurol, mast qiluvchi ichimliklar sotishdan, shuningdek, hayvonlarni o‘ldirishdan tiyilishni anglatgan;
6) to‘g‘ri xatti-harakat. Bu – o‘z ongini inson uchun zarar keltiruvchi o‘y-fikrlardan xoli qilish va foyda keltiruvchi o‘y-fikrlar bilan yashashni anglatgan;
7) to‘g‘ri xotirlash. Bu – insonning o‘z tanasining, hissiyotining, ruhiy holatining bir me’yorda faoliyat ko‘rsatishiga jiddiy e’tibor bilan qarashini anglatgan;
8) fikr-e’tiborni to‘g‘ri narsalarga qaratish. Bu – insonga Budda ta’limoti qoidalaridan chalg‘imaslik imkonini berar edi.

Buddaviylik qoidalari va axloqiy tamoyillarini o‘zida mujassam etgan va bugungi kunda buddaviylikning muqaddas kitobi, deb e’tirof etiladigan “Tripitaka” milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Hozirda “Tripitaka”ning ilk qo‘lyozma nusxasi Shri Lanka (Seylon)da saqlanadi. Bunday o‘zgarishlar buddaviylikda o‘ziga xos yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Buddaviylikning marosimlari ichida ertalabki va kechki ibodat har kuni ado etiladi. Ibodat davomida Budda tasviri oldida duolar o‘qiladi, ta’zim qilinadi va gullar qo‘yiladi.

Buddaviylar har oyda ikki marta “Tiyilish kuni” marosimini o‘tkazadilar. Ibodatdan oldin muattar hid taralib turishi uchun Budda haykali atrofiga gullar

qo‘yilib, shamlar yoqiladi. Buddaviy rohiblar muqaddas kitobdan parchalar o‘qishadi. Marosim tugagach, rohiblar ibodatga kelgan kishilar ustiga, ular o‘z navbatida yerga suv sepadilar.
Diniy urf-odat va marosimlarning oddiyligi buddaviylikni jahonning turli mamlakatlarida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Buddaning tug‘ilgan, nurlangan va vafot etgan kunlarini xotirlash bilan bog‘liq marosimlar mavjud. Buddaning tug‘ilgan kuni ommaviy bayram sifatida nishonlanadi.
Buddaviylar uchun yangi yilning boshlanishi o‘z axloqiy xatti-harakatlariga baho berish, poklanish va savobli ishlarni bajarish haqida qayg‘urish vaqti bo‘lib hisoblanadi.
Buddaning o‘limidan so‘ng shogirdlari orasida ikkiga ajralish ro‘y berdi. Ularning biri “xinayana”, ikkinchisi esa “maxayana” deb ataldi.
“Xinayana” yo‘nalishi miloddan avvalgi I asrda shakllandi. Bu yo‘nalish e’tiqodiga ko‘ra, kishi rohiblar jamoasiga kirib, yakka-yolg‘izlikda tarkidunyochilik va taqvodorlik bilan hayot kechirish orqaligina kundalik ha-yot tashvishlaridan xalos bo‘lishi mumkin.
“Mahayana” yo‘nalishi Budda ta’limotining barcha tomonlarini isloh qildi. Bu yo‘nalish ta‘limotiga ko‘ra, Siddhartha o‘gitlariga amal qiluvchi, xudoga iltijo qiluvchi, rohiblarga moddiy yordam beruvchi, dunyoviy ishlar bilan shug‘ullanuvchi har bir kishi najot topishi mumkin.
Mazkur yo‘nalish vakillari Buddaga ilohiylik tusini berib, diniy marosim va ibodatlarni joriy etdi. Milodning 650-yilidan boshlab Hindistonda buddaviylikning mavqeyi pasaya boshladi. XIII asr boshlariga kelib esa, u Hindistondan siqib chiqarildi. Bunga mamlakat shimolida islom dini mavqeyining kuchayishi va boshqa qismlarida hinduiylik dinining to‘la qaror topishi sabab bo‘ldi.
Vaqt o‘tishi bilan buddaviylik doirasida yangi oqimlar yuzaga keldi. Bugungi kunda uning “Vajrayana”, “Tyantay”, “Szintu”, “Dzen buddizm”, “Lamaizm” kabi oqimlari mavjud.
Buddaviylik milodning I asrida Xitoy, IV asrda Koreya,VI asrda Yaponiya,VII asrda Tibet, XIII asrdan XVI asrgacha Mongoliya, XVII asrdan XVIII asrgacha Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda Amerika va Yevropa qit’asiga ham kirib borgan.

Buddaviylik O‘zbekistonning janubiy hududlarida yangi eraning boshlarida o‘rnashdi. Buddaviylikning Hindistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishi kushonlar-ning hukmronligi bilan bog‘liq. Imperator Kanishkaning hukmronligi davrida Kushon podshohligi ushbu dinning markazlaridan biriga aylangan va Kanishkaning o‘zi shu dinga e’tiqod qilgan. U zarb qildirgan tangalarda Budda tasviri aks ettirilgan.
XX asrning boshlaridayoq, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida buddaviylikka oid ko‘p sonli tangalar, haykal
taroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklar Qoratepa, Chingiztepa, Quva, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Zartepa manzilgohlaridan topilgan. Bu, qadimda O‘rta Osiyoda buddaviylik dini keng rivojlangani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.
V-VIII asrlarda Eftalitlardan keyin buddaviylik dini Markaziy Osiyoda tanazzulga yuz tuta boshladi.
Markaziy Osiyo hududlarida loydan yasalib yaxshi saqlangan Budda tasviri, ko‘plab haykalchalar, bezaklar, diniy marosim buyumlari va tangalar topilgan. Ular II asr oxiri III asr boshidagi buddaviylik ibodatxonasining markaziy binolari ichida saqlangan.

Mamlakatimiz hududida ko‘plab buddaviy yodgorliklarning topilishi va o‘rganilishi hudud madaniy va ma’naviy hayotida bu din qanchalik katta ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Buddaviylik O‘zbekistonda haykaltaroshlik san’ati tarixiga o‘zining hissasini qo‘shgan.
Bugungi kunda yurtimizda buddaviylikning lamaizm (tibet tilida “lama” – “eng ulug‘” degan ma’noni anglatadi) yo‘nalishi tarqalgan. Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat lamalar (ruhoniylar) yordamida najot topadi va gunohlardan poklanadi. Lamalarsiz oddiy buddaviyning nirvanaga yetishishi u yoqda tursin, hatto qayta bu dunyoga qaytib kelganidan so‘ng ham hech narsaga erisha olmaydi, deb hisoblanadi.
2016-yilning 1-yanvariga qadar respublikamizda buddaviylikka mansub bitta diniy tashkilot ro‘yxatga olingan.
Mustahkamlash:
1. Buddaviylik qay tariqa jahon diniga aylandi?
2. Buddaviylik ta’limotidagi olamning uch bosqichi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Buddaviylikning “To‘rt oliy haqiqat” haqidagi ta’limoti mazmunini so‘zlab bering?
4. Buddaviylik marosimlari va bayramlari haqida nimalarni bilib oldingiz? Buddaviylik dinining asosini nima tashkil etadi?
4. Buddaviylik dinining payg’ambari kim?
5. Hozirgi kunda dinning ahvoli?

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.
Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Xristianlik dini

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Xristianlik dini tarixi haqida bilimlarga ega bo’lish
b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish, o'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash
c)Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish, tahlil qilsh qobiliyatlarini rivojlantirish .Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK- Xristianlikning vujudga kelishi. Iso Masih hayoti va faoliyati. Xristianlikning muqaddas kitoblari, xristianlik diniy marosimlari va bayramlari ta’limoti. Bibliya haqida o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar tuza oladi va mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera oladi.

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:xalqlarining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi;
- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.
Dars metodi:”Aqliy hujum” **,**Bahs-munozara

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material
Darsning borishi:
Tashkiliy qism:
a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so'rash
O`tilgan mavzuni mustahkamlash
Xristianlik qayerda paydo bo'lgan?
2. Iso Masih haqida nimalarni bilasiz?
3. Milodiy yil hisobini xristianlikning paydo bo'lishi bilan qanday aloqadorligi bor?
4. Xristianlik dinining jahon dini sifatida e'tirof etilishining sababi nimada?
5. Quyidagi rasmlardagi binolar qayerda qurilganligini bilasizmi?

Yangi mavzu bayoni:

Xristianlik manbalariga ko'ra, milodiy yil hisobi Iso Masih (Isus Xristos) tug'ilgan yildan boshlangan. Grekchada bu so'z "xristos" ("christos") shakliga ega. Bu dinning "xristianlik" yoki "masihiylik" deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Hozirgi kunda xristianlik jahon dinlaridan biri hisoblanadi. Xristianlarning soni buddaviylik va islom diniga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismi – Falastin yerlarida vujudga keldi. Xristianlikning muqaddas kitobi "Bibliya"ga (Yangi Ahd) ko'ra, Iso Masih milodning I asrida Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi.

Bu davrda Falastin ham Rim imperiyasining mustamlakasi bo'lgan. Ayni paytda, imperiya og'ir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirayotgan edi. Buning asosiy sababi – nihoyatda kam unumli quldorlik ishlab chiqarish usuli imperiyada iqtisodiy taraqqiyotni deyarli to'xtatib qo'yganligi edi.

Imperiya hukmron tabaqalari inqirozning oldini olish uchun yanada ko'proq serdaromad o'lkalarni bosib olish siyosatini yuritdilar. Qullarni va mustamlaka qilingan mamlakatlar xalqlarini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirdilar. Oqibatda, ular ozod bo'lish uchun ilohiy xaloskordan madad kuta boshladilar. Ana shuday vaqtda milliy va tabaqaviy chegarani tan olmaydigan, mazlumlarga taskin bera oladigan yangi din – xristianlik vujudga keldi.

Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqdi va xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Iso Masih 33 yoshida fitnachilikda ayblanib, qatl etishga hukm qilindi.

Vaqtlar o'tishi bilan hukmron tabaqalar ham xristianlik dinini qabul qildilar va nihoyat milodiy 324-yilda xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilindi. Chunki imperatorga imperiyani bo'lib yuboradigan emas, aksincha, ularni bir-biriga yaqinlashtiradigan din zarur edi.

Xristianlikning muqaddas manbasi "Bibliya" (yunoncha – "kitob") bo'lib, uning xristianlar uchun eng muqaddas qismi "Injil" (yun. yevangelion – xushxabar) deb ataladi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona "Najotkor" hisoblanmish Iso Masihning yer yuziga yuborilishi, voyaga yetishi, o'z da'vatini boshlashi,

shogirdlari hamda qatl etilishi haqida hikoya qilinadi. Bugungi kunda “Injil”larning umume’tirof etilgan 4 nusxasi mavjud. Ular o‘z mualliflari nomi bilan Mark, Matto, Luqo va Yuhanno Injillari deb nomlanadi.

Xristianlik Ota-xudo, O‘g‘il-xudo va Muqaddas ruh – uch ko‘rinishga ega xudo to‘g‘risidagi ta’limotni, jannat va do‘zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Xristianlikda “yetti sirli marosim”, deb ataluvchi marosimlar katta o‘rin egallaydi. Ular 1279-yilda uzil-kesil xristianlikning marosimi sifatida tasdiqlangan. Xristianlik ta’limotiga ko‘ra bu marosimlarni bajarish chog‘ida Muqaddas Ruh – Xudo qatnashadi, lekin qavmlar buni sezmaydilar. Shuning uchun ham ular “sirli” deb ataladi. Quyida ular haqida bilib olasiz:

Cho‘qintirish. Cho‘qintirish marosimi xristian dinining eng muhim va asosiy marosimlaridan biridir. Bu marosim asosan cherkovda o‘tkaziladi. Xristianlar ta’limotiga ko‘ra, inson tug‘ma gunohkor. Undan forig‘ bo‘lish uchun bola muqaddas suv bilan poklanishi lozim. Poklangan bola cherkov a’zoligiga qabul qilinadi.

Xristianlikda cho‘qintirish marosimi milodning I asri oxirlarida paydo bo‘lgan. IV asrda birinchi xristian jahon soborining qaroriga muvofiq, bu marosim har bir xristian uchun majburiy deb belgilangan.

Non va sharob totish *xristianlikdagi ikkinchi sirli marosim hisoblanadi. Yunon tilida “yevxaristiya” deb ataladigan mazkur marosim, xochga mixlanishdan oldin Isoning havoriylar bilan so‘nggi bor birga kechki ovqatni*

tanovul qilganini xotirlab turish uchun o‘tkaziladi. Bu marosim ertalab yoki tushki ibodatda asosiy o‘rinni egallaydi. Unda Isoning qoni sifatida maxsus tayyorlangan vino hamda tanasi sifatida non tanovul qilinadi.

Miro moyi surtish marosimi. Zaytun yog‘idan tayyorlangan muqaddas moy surtish sirli marosimlardan yana biri bo‘lib, u havoriylar davrida joriy etilgan.

Miro moyi – (yunoncha – xushbo‘y moy) ruhoniy tomonidan oliy navli zaytun yog‘iga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi mahsulotlarni qo‘shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

Miro surtilgan bola, ilohiy muruvvatga erishadi deb hisoblanadi.

Tavba-tazarru qilish marosimi. Bu marosimni bajarish chog‘ida inson o‘zi qilgan gunohlariga iqror bo‘lishi, keyinchalik shu gunohlarni qilmaslik uchun mag‘firat so‘rashi lozim. Buning uchun u cherkovga kelib, qilgan gunohlari uchun tavba qiladi. Cherkov nomidan gunohlarni kechirish huquqiga ega bo‘lgan ruhoniy uning gunohlaridan o‘tadi va nasihat qilib, uni to‘g‘ri yo‘lga soladi.

Yeley (muqaddas zaytun yog‘i) surtish marosimi. Muqaddaslashtirilgan zaytun yog‘i shifobaxsh xususiyatga ega. Shuning uchun u bemorning peshonasiga, yonog‘iga, labiga, ko‘krak qismi va qo‘llariga surtiladi. Shu orqali inson jismonan va ruhan davolanadi. Tavbasiga tayanib ulgurmagan bandalarni gunohlaridan xalos etadi, deb ishoniladi.

Ruhoniy unvonini berish marosimi. Bu ruhoniylik martabasiga ko‘tarilish bilan bog‘liq marosimdir. Diniy ta’limotga ko‘ra, ruhoniy bo‘ladigan shaxsning bo-shiga yepiskop qo‘l tekkizganidan keyin, u “Muqaddas Ruh”ning alohida

marhamati bilan odamlar o‘rtasida vo-sitachilik qilish xususiyatiga ega bo‘ladi. Shundan so‘ng mazkur inson xuddi Isoga uning havoriylari xizmat qil- ganidek, o‘z zimmasiga Xudo va odamlar orasida vositachi bo‘lib xizmat qilish majburiyatini oladi.

Nikoh marosimi. Bu marosim oila qurishni cherkov nikohi orqali rasmiylashtirishni nazarda tutadi. Marosim chog‘ida bo‘lajak turmush quruvchilar bir-birlariga sodiq bo‘lish haqida va’da beradilar. Marosim bo‘lajak farzand-ning eson-omon dunyoga kelishini ta’minlaydi va uning xristianlik tarbiyasini olishiga xizmat qiladi. Xudo nikohni himoya qiladi, deb ishoniladi. Rojdestvo va pasxa xristianlikda keng nishonlanadigan eng asosiy bayramlar hisoblanadi.

Rojdestvo – Isoning tug‘ilganligi sharafiga o‘tkaziladi.

Xristian ta’limotiga ko‘ra, rojdestvo kuni uch mahal (quyosh chiqayotganda, ertalab va kunduzi) ibodat qilinadi.

Rojdestvo oilaviy bayram bo‘lib, bu kunda faqat maxsus taomlargina (baliq, meva, sabzavotlar va shirinliklar) dasturxonga tortiladi. Osmonda birinchi o‘nta yulduz paydo bo‘lganda ibodatxonalarda bayram marosimlarini o‘tkazish boshlanadi.

Cherkov tomonidan Isoning tug‘ilishini bayram qilish IV asrdan boshlangan.

Pasxa. Bu bayram Iso Masihning qayta tirilganligi sharafiga nishonlanadi.

Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, Iso Masih juma kuni kechqurun vafot etgan. Uni yakshanba kuni dafn etmoqchi bo‘lishadi. Bir qancha ayollar Iso Masihning qabri oldiga ibodat qilish uchun keladilar. Ular orasida Mariya Magdalena ismli ayol farishtani ko‘rgani va farishta Iso Masihning qayta tirilgani haqida xabar berganligini aytadi. Natijada bu xabar tez orada hamma joyga tarqaydi. Mariya Magdalena Rim imperatori huzuriga borganida, unga qizil rangga bo‘yalgan tuxumni ko‘rsatadi va “Iso qayta tirildi”, deydi. Shuning uchun xristianlar tuxumni barcha tug‘ilishlarning avvali, deb hisoblaydilar. Shundan beri “Pasxa” bayramida tuxumni bo‘yab, bir-biriga taqdim qilish odat tusiga kirgan. Bu bayram yetti kun davom etadi.

Mustahkamlash:

1.Xristianlik dini paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan tarixiy shart-sharoitlar haqida so‘zlab bering.

2. Qanday sabablarga ko‘ra xristianlik davlat diniga aylangan?

3. Xristianlikda qanday diniy marosimlar mavjud?

4. Xristianlikning muqaddas manbalari qanday nomlangan?

5. “Pasxa” bayramida tuxumni bo‘yab, bir-biriga taqdim etish qanday ma’noni anglatadi?

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Xristianlik dini ta’limoti

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Xristianlik dini ta’limoti va yo‘nalishlari haqida bilimlarga ega bo’lish

b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

- TK -ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi Xristianlikning katolik va pravoslav cherkoavlariga bo‘linishi. Katolik va pravoslav ta’limotlari. Martin Lyuter ta’limoti va protestantlikning kelib chiqishi haqidagi fikrlari bilan dars jarayonida faol ishtirok etadi;

Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:xalqlarining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi;

- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:”Aqliy hujum” **,**Tushunchalar tahlili

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash. Uy vazifasi asosida.

Rim imperiyasining bo‘linishi qanday oqibatlarga olib kelgandi?

2. Xristianlikning bo‘linishiga nimalar sabab bo‘lgan?

3. Katolik, pravoslav, protestant deganda nimani tushunasiz?

4. Yevropadagi reformatsiya Germaniyada qanday oqibatlarga olib kelgan edi?

Yangi mavzu bayoni:

Xristianlik cherkovining bo‘linishi

Katoliklik (Katolitsizm) (yunoncha – “butun dunyo”) 1054-yilda xristian-likning ikkita – g‘arbiy va sharqiy cherkovga bo‘linishi natijasida tashkil topgan.

G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi xristianlikning keyingi taqdiriga katta ta’sir ko‘rsatdi. Imperiya qulashiga qadar Rim cherkovini yepiskop boshqargan. Imperiya qulagach (476-yilda) Rimdagi dunyoviy hokimiyat ham cherkovning qo‘liga o‘tgan. Huddi shu vaqtdan boshlab Rim yepiskopi Rim papasi unvonini oldi.

Imperiyaning sharqiy qismi – Vizantiyada esa, kuchli imperator hokimiyatining saqlanib qolganligi Vizantiya cherkovining (Konstantinopol) cheklanmagan huquqqa ega bo‘lib olishiga imkon bermadi. Vizantiyada cherkov imperatorga bo‘ysundirildi. Natijada Rim cherkovi Konstantinopol cherkovini o‘ziga bo‘ysindira olmadi. Xristian cherkovining katolik va pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim Papasi va Konstantinopol Patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida yuz berdi.

Rim Papasi – yashirin ovoz berish yo‘li bilan umrbod muddatga saylanadi.

867-yilda Papa Nikolay va Konstantinopol Patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro‘y berdi va bu ajralish 1054-yili rasman tan olindi. Ulardan biri Rim Papasiga bo‘ysunuvchi katolik (butun dunyo) cherkovi, ikkinchisi esa Konstantinopol Patriarxiga bo‘ysunuvchi pravoslav (chin e’tiqod) cherkovi degan nomni oldi.

Katoliklik Yevropa, Amerika qit’asi davlatlarida keng tarqalgan. Afrikadagi qator mamlakatlarda va Lotin Amerikasi davlatlarida asosiy e’tiqod shakli, Vatikan davlatida esa rasmiy din hisoblanadi.

Katoliklik ta’limotiga ko‘ra, cherkov ezgu, xayrli ishlar xazinasiga ega. Cherkov bu xazinani tasarruf qilish, uni ulashish orqali gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tuhfa qilish huquqiga ega. Bu huquq “indulgensiya”lar to‘g‘risidagi ta’limotning, ya’ni pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirishning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Katoliklikning o‘ziga xos xususiyatlari:

– nikohning qat’iy hisoblanishi (katoliklik aqidasiga binoan nikoh osmonda tuziladi va yerdagilar uni buzish huquqiga ega emaslar);

– Bibi Maryamning xudodan gunohlarni so‘rab beruvchi sifatlarining ko‘proq e’zozlanishi;

– marosimlarning teatrlashtirilgan tarzda, dabdabali, kishilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir etadigan darajada o‘tkazilishi, marosim chog‘ida qo‘shiq bilan birga organ musiqasidan ham foydalanilishi;

– ibodatxonalarning rasm va haykallar bilan bezatilishi, avliyolar va jafokashlarning ibodatlarini ifoda etuvchi turli muqaddas yodgorliklarning e’zozlanishi.

756-yilda Franklar davlati qiroli Pipen Pakana Rim viloyatini Papaga hadya etdi. Shu vaqtdan boshlab u Papa viloyati deb atala boshladi. Yer hadya etilishi Papa dunyoviy hokimiyatining ham yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

1870-yilda Italiya inqilobi Papani dunyoviy hokimiyatdan mahrum etdi. Shu yili Rim shahrining Vatikan deb ataluvchi qismi Papaning qarargohi etib belgilandi.

Vatikan hududida turli saroylar va ibodatxonalar, shuningdek, mashhur Pyotr sobori, ya’ni katolik olamining bosh cherkovi joylashgan. Vatikan jami katolik cherkovlari markazlari bo‘lib, Rim Papasi ana shu yerdan turib rahbarlik qiladi. Vatikan boshlig‘i bo‘lgan Rim Papasi – mutlaq monarx hokimiyatiga ega. Papa kardinallar, ya’ni ruho-niylarning oliy hay’ati tomonidan umrbod muddatga saylanadi. Papalik mansabiga nomzod bo‘lgan ruhoniy saylanishi uchun ovozlarning 3 dan 2 qismini va yana bir ovoz olishi kerak. Saylovdan o‘tgan nomzod o‘z ismidan voz kechadi va o‘ziga yangi ism oladi.

1523-yildan to 1978-yilgacha papalar faqat italyan millati vakillaridan saylanib kelindi. 1978-yilda bu an’ana buzildi. Polsha ruhoniysi Karol Voytila Papa etib saylandi. Bugungi kunda Rim Papasi argentinalik Fransisk (Xorxe Mario Bergolyo)dir

Pravoslavlik tarixan xristianlikning sharqiy yo‘nalishi sifatida shakllandi. U asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan.

“Pravoslav” atamasi yunoncha “ortodoksiya” so‘zidan olingan bo‘lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslavlikning manbaviy asoslari Vizantiyada shakllandi. Pravoslavlikda yagona markaz hozirga qadar yo‘q. Bugungi kunda dunyoda 15 ta avtokefal (ya’ni mustaqil) – Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya-Slovakiya, Rus, Amerika va 4 ta avtonom maqomga ega pravoslav cherkovlari mavjud. Ular umumcherkov ahamiyatiga molik masalalarni hal etishda bir-birlari bilan aloqada bo‘lib turadilar. Pravoslavlikda diakon, yepiskop, mitropolit,

patriarx kabi diniy rutbalar mavjud. Poytaxt shaharlarning yepiskoplari “mitropolit” deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabi Patriarxdir. Xristianlikning 7 sirli marosimi pravoslavlikning ham asosini tashkil etadi. Faqat ularning bajarilishida katoliklar bilan pravoslavlar orasida ba’zi bir farqlar bor. Pravoslavlikda ibodat asosan mahalliy tillarda olib boriladi. Rojdestvo, Pasxa kabi umumxristian bayramlari pravoslavlikning ham asosiy bayramlari hisoblanadi. Cherkovlar bo‘linganidan so‘ng katoliklar tomonidan qabul qilingan aqidalarni pravoslavlar xato, “Muqaddas yozuv” va “Muqaddas rivoyatlar”ga zid, deb hisoblaydilar. Shuningdek, katoliklar tomonidan qabul qilingan bayramlarni ham pravoslavlar nishonlamaydilar.

Protestantlik XVI asrda katoliklik yo‘nalishida ro‘y bergan bo‘linish natijasida paydo bo‘ldi. Protestantlikning vujudga kelishi Yevropada katoliklikka qarshi qaratilgan islohotchilik (reformatsiya) harakatining natijasi bo‘ldi. Protestantlik ko‘plab mustaqil cherkovlarni o‘z ichiga oladi. Protestantlik AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Kanada, Shvetsariya, Skandinaviya, Latviya va Estoniya mamlakatlarida keng tarqalgan. Katoliklik cherkovi tomonidan XV-XVI asrlarda indulgensiya savdolarining avj oldirilishi oqibatida cherkovning xalq orasida obro‘si tushib bordi. 1517-yil 31-oktyabrda Vittenberglik ruhoniy Martin Lyuter shahar sobori darvozasiga indulgensiyalar savdosini tanqid qilgan 95 moddadan iborat tezislarini osib qo‘yadi. Lyuter xristianlik aqidalari hammaga to‘liq tushunarli bo‘lishi uchun “Bibliya”ning milliy tillarga tarjima etilishini, cherkovdagi diniy xizmatlar ona tilida olib borilishini yoqlagan. Ba’zi knyazlar va shahar vakillari lyuteranlikni qo‘llab, “Protestatsiya”ga imzo chekdilar. Protestantlik degan nom mana shundan kelib chiqqan.

Protestantlik ta’limotining o‘ziga xos xususiyatlari

Protestantlik xudoning mavjudligi, uning uch qiyofada namoyon bo‘lishi, ruhning abadiyligi, jannat va do‘zax, vahiy va ilohiy taqdir to‘g‘risidagi umumxristian aqidalarini tan oladi. Shu bilan birga, protestantlik: cherkovning insonlar bilan xudo orasidagi vositachi ekanini inkor etadi;

– ruhoniylar va oddiy kishilar orasidagi tabaqalanishni rad qiladi;

– avliyolar, xoch va ikonalarga sig‘inishni noto‘g‘ri deb hisoblaydi;

– ko‘p mablag‘ talab qiladigan tadbirlarni asossiz deb biladi;

– *ruhoniylarning uylanmasligini inkor etadi.*

Mustahkamlash:

Nega xristianlikda bo‘linish yuz berganligining sabablarini tushuntirib bering.

2. Katoliklik va pravoslavlik ta’limotlaridagi mushtarak va farqli jihatlari haqida so‘zlab bering.

3. Protestantlikning paydo bo‘lishi va Yevropadagi reformatsiyaning o‘rtasida qanday aloqadorlik bor?

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.**Uyga vazifa:** Mavzuni o’qish, savol tuzish

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Islom

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Islom dini tarixi haqida bilimlarga ega bo’lish
b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish o'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash
c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish, tahlil qilsh qobiliyatlarini rivojlantirish .Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK : Milodiy VI asrigacha Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy hayot. Muhammad payg‘ambar hayoti va faoliyati. Islom dini ta’limoti va bayramlari. Ma’naviyatimizni ajralmas qismi bo’lgan islom dini tarixini o‘rganish, tarixiy xotira xalq ma’naviyatinining asosi ekanligini anglash

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish,o’zbek xalqining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi;
- qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.
Dars metodi:”Aqliy hujum”
Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material
Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

1.Muhammad ibn Abdulloh haqida nimalarni bilasiz?

2. Islom dinining vujudga kelishi arafasida Arabiston yarimorolida qanday tarixiy voqealar yuz bergan?
3. VII asrda arab qabilalarining ijtimoiy hayoti qanday bo‘lgan?
4. Quyidagi rasmlar haqida nimalarni bilasiz? Ular bilan islom dinining qanday aloqasi bor?

Yangi mavzu bayoni:

VI asr oxiri – VIIasr boshlarida arab jamiyatidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit

Arabiston yarimorolining Makka, Madina, Toif va Xaybar singari qator shaharlarini o‘z ichiga olgan qismi Hijoz deb atalgan.
Milodning VI asriga kelib Makka shahri Arabistonning eng yirik markaziga aylangan. U deyarli hamma tomoni darali tog‘lar bilan o‘ralgan vodiyda joylashgan. Shuning uchun ham bu yerda hech qachon shahar atrofiga devor qurish zarurati bo‘lmagan. Allohning uyi deb hisoblanuvchi Ka’ba (Ibrohim payg‘ambar va uning o‘g‘li Ismoil qurgan. Arablar undan ibodatxona sifatida foydalanishgan) bora-bora Makkani arablarning muqaddas joyiga aylantirgan.
VI asr oxiri – VII asr boshlarida arablar katta-kichik qabilalarga bo‘lingan holda turli xil nomdagi but-sanamlarga sig‘inar edilar. O‘sha davrda Makka shahridagi Ka’baning atrofida 360 ta but va sanamlar mavjud bo‘lgan.
Mashhur tarixchi Ibn Kalbiyning qadimgi arablar dinlariga bag‘ishlab yozgan “Butlar haqidagi kitob”ida arab xalqining islomga qadar bir necha hayvonlarni ilohiylashtirganliklari haqida xabar beriladi. Jumladan, Yag‘us – sher, Ya’uq – ot va Nasr – burgut qiyofasida ifodalangan.
Arabiston tarixining mazkur davri “Johiliyat davri“ deb ataladi. Johiliyat davrida inson huquqlariga umuman rioya qilinmas, qul va asirlarning ahvoli o‘ta achinarli, ayollar haq-huquqlardan butunlay mahrum qilingan edi. Qiz bolalarni tiriklayin ko‘mish, axloqsizlik kabi salbiy odatlar avj olgan edi.
Qabilalar o‘rtasida tez-tez urushlar bo‘lishi ularning tashqi dushmanlarga qarshi kurashini susaytirmoqda edi. Bu esa, arab qabilalarini yagona davlatga birlashtirishni zaruratga aylantirib qo‘ydi. Mana shunday vaziyatda Islom dini nafaqat insonlar orasida tarqalgan axloqsizlik va jaholatga, balki siyosiy parokandalikka, besamar urushlarga ham yechim bo‘lishi kerak edi.
\ Islom dinining payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukmronlik qilayotgan Makka shahrida, 570-yilda Quraysh qabilasining obro‘li Abdulmuttalib xonadonida dunyoga kelgan.
Otasi Abdulloh va onasi Ominadan erta yetim qolgan Muhammad (s.a.v.) dastlab bobosi Abdulmuttalib, keyinchalik amakisi Abu Tolib qo‘lida tarbiyalanadi. Muhammadning (s.a.v.) to‘g‘ri so‘zligi, birovni aldamasligi, doimo rost so‘zlashi qabiladoshlari tomonidan e’tirof etilib, ismlariga “Amin” (ishonchli) qo‘shimchasini qo‘shib chaqirganlar.
610-yilda Muhammad (s.a.v.) 40 yoshga to‘ladi. Shu yili Ramazon oyining 17-kunida Makka shahrining Nur tog‘idagi “Hiro” g‘orida Muhammad (s.a.v.)ga ilk vahiy kelganligi islom dini manbalarida qayd etiladi. Shundan so‘ng u o‘z yaqinlariga islom dini mohiyatini yetkaza boshladi.

Islom dinini qabul qilganlarning safi kundan kunga ortib bordi. Bu esa makkalik zodagonlarga yoqmadi. Ular musulmonlarga tazyiq o‘tkaza boshladilar. Ushbu og‘ir vaziyatdan qutulish maqsadida musulmonlarning bir qismi Makkadan Habashiston (hozirgi Efiopiya)ga ko‘chib o‘tdilar. Bu islom tarixida “birinchi hijrat” nomini oldi.

622-yilda, dushmanlarning navbatdagi tajovuzidan so‘ng, Muhammad (s.a.v.) o‘z safdoshlari bilan Makkadan Madinaga ko‘chdilar. Islom tarixida bu ko‘chish “Madinaga hijrat” deb ataladi.

Muhammad (s.a.v.) 632-yilda haj ibodatini amalga oshirganlar. Haj safari 10 kun davom etdi. Manbalarda ta’kidlanishicha, Muhammad Rasulullоh tuya ustida o‘tirib, hajga to‘plangan musulmonlarga qarata muborak nutq so‘zladilar. Bu nutq “Vido xutbasi” ham deyiladi. Payg‘ambarning bu hajlari islom tarixida – “Vidolashuv haji” deb yuritiladi.

Muhammad (s.a.v.) “Vidolashuv haji”dan Madinaga qaytgach, milodiy 632-yilning 27-mayida 63 yoshda vafot etdilar.

Komil inson har bir odamning komil bo‘lishi uchun qayg‘uradi.
Van Shoujen

Mustahkamlash:

Ijodiy faoliyat

Matnni o‘qing.

1. Oqilona hukm nimadan iborat bo‘lganligini izohlang.

2. Bu voqeani hamjihatlik, tenglik, muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi tamoyillar bilan bog‘lang.

Adolatli yechim: urushning oldi olindi

605-yil Ka’bani ta’mirlash jarayonida qabilalar o‘rtasida “Hajarul-Asvad” (“Qora tosh”)ni o‘z o‘rniga qo‘yish borasida janjal chiqdi. Bu janjal o‘ta jiddiy tus olib, urush darajasiga ham yetdi. Mazkur masala Muhammad (s.a.v) tomonidan oqilona yechimini topdi. U kishi bir matoni yerga solib, unga “Hajarul-Asvad”ni qo‘ydilar. Muhammad (s.a.v) qabila boshliqlariga matoni chetidan ushlab barobar ko‘tarishga buyurdilar. Ular shunday qilib toshni o‘z o‘rniga olib borgach, o‘zlari toshni joyiga qo‘ydilar. Butun kelishmovchiliklar bir zumda bitdi, bema’ni urushning oldi olindi, hamma bu adolatli hukmdan rozi bo‘ldi. “Al-Amin adolatli, oqilona hukm chiqardi”, – dedilar.

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Islomdagi mazhablar va aqidaviy ta’limotlar

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Islom dini ta’limoti va yo‘nalishlari haqida bilimlarga ega bo’lish

b) Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish, tahlil qilsh qobiliyatlarini rivojlantirish .Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK: Qur’onning tarkibiy tuzilishi, jamlanishi. Hadislar. Shariat.

Islomdagi mazhablar va yo‘nalishlar. Mazhablar va ularning shakllanishi. Ma’naviyatimizni ajralmas qismi bo’lgan islom dini tarixini o‘rganish, tarixiy xotira xalq ma’naviyatinining asosi ekanligini anglash

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish , Islom dini o’zbek xalqining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi;
- qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:”Aqliy hujum” **,**Tushunchalar tahlili

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash. **Ijodiy faoliyat**

Matnni o‘qing.

1. Oqilona hukm nimadan iborat bo‘lganligini izohlang.

*2. Bu voqeani hamjihatlik, tenglik, muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi tamoyillar bilan bog‘lang**.***

Adolatli yechim: urushning oldi olindi

605-yil Ka’bani ta’mirlash jarayonida qabilalar o‘rtasida “Hajarul-Asvad” (“Qora tosh”)ni o‘z o‘rniga qo‘yish borasida janjal chiqdi. Bu janjal o‘ta jiddiy tus olib, urush darajasiga ham yetdi. Mazkur masala Muhammad (s.a.v) tomonidan oqilona yechimini topdi. U kishi bir matoni yerga solib, unga “Hajarul-Asvad”ni qo‘ydilar. Muhammad (s.a.v) qabila boshliqlariga matoni chetidan ushlab barobar ko‘tarishga buyurdilar. Ular shunday qilib toshni o‘z o‘rniga olib borgach, o‘zlari toshni joyiga qo‘ydilar. Butun kelishmovchiliklar bir zumda bitdi, bema’ni urushning oldi olindi, hamma bu adolatli hukmdan rozi bo‘ldi. “Al-Amin adolatli, oqilona hukm chiqardi”, – dedilar.

Yangi mavzu bayoni:

Islom dini ta’limotiga ko‘ra, bu dinning beshta arkon (ustun)i mavjud. Ular imon, namoz, ro‘za, zakot va hajdir.

Imon deganda quyidagi 7 narsaga ishonish tushuniladi:

1) Allohga; 2) farishtalarga; 3) muqaddas kitoblarga; 4) payg‘ambarlarga; 5) oxiratga; 6) taqdirga; 7) o‘lgandan keyin tirilishga.

Islom dinini qabul qilmoqchi bo‘lgan kishi Allohga va uning payg‘ambari Muhammad (s.a.v.)ga imon keltirish kalimasi “Kalimayi shahodat”ni aytishi talab etiladi. Kalimayi shahodat Allohdan o‘zga xudo yo‘qligiga va Muhammad (s.a.v) uning bandasi va payg‘ambari, rasuli ekanligiga shohidlik beraman, demaklikdir.

Namoz. Namoz ibodati kuniga 5 mahal o‘qiladi. Namoz Allohga shukronalik ramzi sifatida ado etiladi. Namozlar farz, vojib, sunnat va nafl namozlariga bo‘linadi.

Ro‘za. Ro‘za savob umidida erta tongdan to kun botishiga qadar tutiladigan ibodat. Ro‘za tutgan kishi kun davomida yeyish va ichishdan, yomon so‘zlarni gapirishdan, boshqa gunoh ishlardan tiyiladi.

Musulmonlar Ramazon oyida ro‘za tutadilar. Ramazon oyi oxirida fitr sadaqasi (fitr ro‘za) beriladi.

Zakot. Zakot moli nisobga (ma’lum miqdorga) yetgan musulmonlarning faqir-u miskinlarga berilishi shart bo‘lgan to‘lovidir.

Haj. *Haj – Ka’batulloh atrofida tavof qilish, ya’ni aylanish, Safo va Marva tepaliklari orasida yugurish, Arafot vodiysida bo‘lish va ibodat bilan bog‘liq zarur marosimlarni ado qilishdan iborat bo’lib, qodir bo‘lgan kishi uchun umrida bir marotaba Makka shahriga ziyoratga borishdir.*

Islomning asosiy bayramlari *Iyd al-fitr va Iyd al-adha* hisoblanadi. Bizning yurtimizda bu bayramlar Ramazon hayiti va Qurbon hayiti deb ataladi.

Ramazon hayitida 30 kun ro‘za tutgan musulmonlar zimmalariga yuklatilgan farz amalini sog‘-salomat ado etib tugatganlari munosabati bilan bir-birlariga xursandchilik izhor etadilar. Bu kuni hayit namozi o‘qiladi. Namozlarni ado etib bo‘lgandan so‘ng, kishilar o‘zaro ko‘rishib, bir-birlarini hayit bayrami bilan muborakbod etadilar, sovg‘alar ulashadilar.

Qurbon hayiti kunida esa hayit namozi o‘qilishi bilan birga, qurbonlik qilinadi. Qurbonlik – qurbi yetgan kishi Allohga roziligi yo‘lida Qurbon hayiti kunlari biror jonliq (qo‘y, echki, sigir, tuya) so‘yishidir. Qurbonlik Alloh yo‘liga bag‘ishlanadi. Qurbonlik go‘shtidan o‘zi, qurbonlik go‘shtidan muhtoj kishilarga beriladi.

Bu bayramlarni xursandchilik, tinch-totuvlik, shukronalik bilan o‘tkazish buyurilgan. Bu ulug‘ kunlarda qarindoshlar, yor-u birodarlar bir-birlarini ziyorat qilishi, tabriklashi, hol-ahvol so‘rashlari lozim.

Islom ta’limotiga ko‘ra, ***Tavrot, Zabur, Injil*** va ***Qur’on*** kitoblari muqaddas hisoblanadi. ***Qur’on*** Alloh tomonidan tushirilgan so‘nggi muqaddas kitob bo‘lib, u o‘zidan oldingi muqaddas kitoblarning hukmini bekor qilgan.

Fitr sadaqasi – *o‘ziga to‘q musulmonlarning muhtoj va hojatmandlar uchun Ramazon oyida beradigan xayr-u ehsonlaridir.*

Nisob – belgilangan ma’lum miqdor, pul hisobida 85 gram tilla miqdoriga teng. Mablag‘i nisobga yetgan musulmon bir yilda bir marta zakot beradi.

Hech bir ota o‘z farzandiga xulqi-odobdan buyukroq meros bera olmaydi.

Xalq hikmati

Mustahkamlash:

Ijodiy faoliyat

Matnni o‘qing.

1. Matnda inson huquqlarini himoya qilishga oid bo‘lgan jihatlarga e’tibor qarating.

2. VII asrda dunyoning boshqa mamlakatlaridagi holat bilan taqqoslang.

3. Matndagi “***Ey insonlar! Har bir jinoyatchi o‘z aybiga faqat o‘zi javobgardir. Hech bir jinoyatchining gunohi uchun avlodi jazoga tortilmaydi…***” jumlasini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining I bobidagi “adolat, tenglik, qonunning ustuvorligi” kabi qoidalar bilan solishtiring.

4. “*Qullarga kelsak, ularga yegan narsalaringizdan bering va kiyganlaringizdan kiydiring. Ular ham Allohning qullaridir va yomon muomalaga loyiq emaslar*”, degan jumlani 1948-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” bilan mutanosib jihatlarini ko‘rsating.

“Ey insonlar!.. Bu kuningiz (qurbonlik kuni) qanday muqaddas bo‘lsa, bu shahrimiz qanday muqaddas shahar bo‘lsa, bilingizki, jonlaringiz va mollaringiz ham shu kabi muqaddasdir. Bularga qilingan har qanday tajovuz haromdir.

Hushingizni yig‘ib oling! Bilingizki, zinhor-bazinhor mendan keyin eski adashuvga qaytib, bir-biringizning bo‘yningizni kesmang!

Qullarga kelsak, ularga yegan narsalaringizdan bering va kiyganlaringizdan kiydiring. Ular ham Allohning qullaridir va yomon muomalaga loyiq emaslar.
Eski johiliyat davridan qolgan hamma qon da’volari batamom bekor qilindi.
Kimning yonida bir omonat bo‘lsa, uni egasiga qaytarib bersin.
Ey insonlar! Ayollarning haqlariga rioya eting. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo‘ling. Ularning haqlari xususida Allohdan qo‘rqing! Ayollar Sizga Allohning omonatidir...”

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Tasavvuf va tariqatlar

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Mustamlaka va sovet davrida dindorlarga munosabat haqida bilimlarga ega bo’lish

b)Tarbiyaviy maqsad: : O'quvchilarni diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarni diniy ta'limotlarni taqqoslay olish, tahlil qilsh qobiliyatlarini rivojlantirish .Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK- Tasavvuf va tariqatlar haqida o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollar tuza oladi va mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob bera oladi.

- Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish , Islom dini o’zbek xalqining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon tsivilizatsiyasiga ta’siri haqida ma’lumot bera oladi;
- qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:”Aqliy hujum”,Debat

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Matnni o‘qing.

1. Matnda inson huquqlarini himoya qilishga oid bo‘lgan jihatlarga e’tibor qarating.

2. VII asrda dunyoning boshqa mamlakatlaridagi holat bilan taqqoslang.

3. Matndagi “***Ey insonlar! Har bir jinoyatchi o‘z aybiga faqat o‘zi javobgardir. Hech bir jinoyatchining gunohi uchun avlodi jazoga tortilmaydi…***” jumlasini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining I bobidagi “adolat, tenglik, qonunning ustuvorligi” kabi qoidalar bilan solishtiring.

Yangi mavzu bayoni:

Tasavvuf – islom doirasidagi mistik-zohidlik oqimidir. Ushbu tahlimot tanlangan insonlar (*al-xossa*)ning Alloh bilan hissiy bog’lanishi haqidagi g’oyani olg’a suradi. Ushbu tahlimot nazariyotchilarining fikrlariga ko’ra, shunday bog’lanish natijasida mazkur tanlangan kishilar va ularning tahlimotiga ergashganlar Allohni tanishga erishadilar. Undan tashqari, qator sufiylar yo’lini tanlagan tasavvuf mualliflariga ko’ra, tasavvufda inson chuqur mushohada va maxsus ruhiy-mahnaviy mashg’ulotlar natijasida Allohning birligi ichida yo’qolib ketish (*fano*) yoki u bilan abadiylik (baqo)ga erishishi mumkin. Bu yerda so’z Allohga mahnan qo’shilib ketish haqida boradi, albatta.

Tasavvuf va unga o’zakdosh bo’lgan *sufiy, mutasavvif* atamalarining kelib chiqishi haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Hozirgi paytga kelib ko’proq tasdiqlangan va ko’pchilik (ham musulmon, ham g’arb olimlari) tomonidan qabul qilingan fikr shuki, ushbu atama “jun, yung” mahnosini bildiruvchi *s-v-f* o’zagi *(suf)*dan olingan. Bu boshlang’ich davrda islom olamida zohidlik guruhlari ko’rinishida shakllangan ilk sufiylarning, hadisda aytilganidek, sovuq va issiqdan saqlaydigan jun chopon – *xirqa* kiyib yurganliklari bilan bog’liq.

To’g’ri, tasavvufning paydo bo’lishiga turtki bo’lgan barcha zohidlar ham sufiy deb atalmaganlar. Ularga ko’pincha *zuhhod (*birligi – *zohid)* so’zini qo’llaganlar. Zohidlik amalda islom bilan bir davrda paydo bo’ldi. Tasavvuf yozma anhanasiga ko’ra, Muhammad

payg’ambarning sahobalari orasida Abu-d-Dardo, Abu Zarr, Huzayfa kabilarni sufiylar deb ataladi. Ko’pgina sufiy tariqatlari o’zlarining silsilalarini Payg’ambar sahobalaridan biriga va ilk to’rt xalifaga, ko’pincha Abu Bakr (632-634)ga qadar yetkazadilar.

Biroq, ko’pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, islomdagi mistik-zohidlik harakatining paydo bo’lishi VIII asrning o’rtalari – XI asr boshlariga to’g’ri keladi. Ushbu davr sufiylari orasida mashhur hadis yig’uvchilar (*muhaddisun*), Qurhon o’quvchilari (*qurro’*) va ilk sharhlovchilari, hunarmandlar, savdogarlar, shuningdek, islomni qabul qilgan xristianlar bor edi. SHuni tahkidlash kerakki, zohidlik harakati turfaxil xalifalik jamiyatidagi ijtimoiy va mulkiy tabaqalanishga, doim ham Payg’ambar sunnatlariga amal qilmagan boy tabaqaning ajralib chiqishiga qarshi o’ziga xos harakat edi. Bunday vaziyat avvalgi ikki asr davomida musulmon jamiyatining murakkab diniy hayoti bois ko’pincha ijtimoiy va demakki, siyosiy beqarorlikka sabab bo’lgan. Aynan mana shunday vaziyatda past va o’rta tabaqalar o’zlarining diniy istaklariga mahnaviy-ruhiy ifoda qidirdilar. Ushbu qidirish boshqa mafkuraviy-siyosiy harakatlar bilan bir qatorda sufizm ko’rinishini oldi (passiv ijtimoiy-diniy norozilik ko’rinishi sifatida) va o’sha davrdagi hukumatdan uzoqlashish, boylikdan yuz o’girish, Payg’ambar tahlimotlariga qathiy amal qilish kabilarga dahvat qildi. Passiv norozilik keyinchalik ko’plab sufiy tariqatlarining asosini tashkil qilgan *tavakkul* (o’zni Allohga topshirish), *sabr*, *rizo* (barcha holga rozi bo’lish) va boshqa qoidalarni rivojlantirgan zohidlik ko’rinishida ham aks etgan. Ayni mana shu paytdayoq ilk diniy marosimlar amaliyoti boshlanib, keyinchalik u sufizmdagi marosimlarning (tundagi bedorlik, nafl namoz, ro’za va hokazolarning) shakllanishiga tahsir ko’rsatdi.

Tasavvufning mafkuraviy-diniy asosi, shubhasiz, Qurhoni karim mahnolari ustida chuqur mulohza yuritish, Buyuk kitobning botiniy mahnolarini qidirish anhanasini yuzaga keltirdi. Sufiylarning diniy-ruhiy izlanishlarining boshqa manbai sifatida (ratsional asosga ega bo’lgan) falsafiy-diniy oqimga qarshi o’ziga xos aksil harakatni ehtirof etish lozim. Bu yerda so’z, eng avvalo, o’sha davrda islomda paydo bo’lgan ratsionalist ilohiyotchilar (*mutakallimun*) haqida ketmoqda. Sufiylar mahlum darajada ratsional bilish imkoniyatlarini ehtirof etgan holda, narsalar va hodisalarning mohiyatini ichki tuyg’u, mistik (botiniy) va ruhiy izlanishlar orqali bilish mumkinligini tasdiqlaganlar. Mana shunda Haqiqat «o’zining Sirini ochishi» va kutilmaganda sufiyga Yashirin (*kashf*) narsalarni bilish va borliqning oliy haqiqatini anglash yo’lini yoritib yuborishi mumkin.

Hissiy yo’l bilan Haqiqatni izlash sufiylarni inson ruhining eng nozik harakatlari, ichki iztiroblar, diniy haqiqatlarni anglash va chuqur tahlil qilishga undagan.

Bu mahnoda tasavvufning ilk asoschilari va namoyondalaridan bo’lgan «Qalblar va fikrlar» ilmi (*ilm al-qulub va-l-xavotir*)ga asos solgan Hasan al-Basriy (642-728) ni esga olish o’rinli. Keyinchalik, Hasan al-Basriyning izdoshlaridan bo’lgan va Basrada yashagan (VIII-IX asrlar) Raboh ibn Amr, birinchi sufiy ayol Robi‘a al-Adaviya, Molik ibn Dinor va boshqalar dahvatlarida asta-sekin Allohga bo’lgan sof haqiqiy muhabbat, unga yaqinlashishga intilish haqida (yana tahkidlaymizki, so’z ruhiy yaqinlik haqida bormoqda) fikr va g’oyalar paydo bo’la boshladi. Shu davrdan boshlab ular tasavvufga ochiq mistik xususiyat baxsh etdilar. Va bu tahlimotlar tasavvufning o’ziga xos jihatlaridan bo’lib qoldi.

IX asrda tasavvuf nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish borasidagi urinishlar davom etdi. Bu asrdagi maktablar bilan bir qatorda Bag’dod va Xurosonda (*Malamatiya*) ham shunday maktablar paydo bo’ldi. Ushbu maktablar vakillari, avvalgidek asosiy ehtiborni sufiylaring ichki dunyolariga qaratdilar, har bir maktabga xos bo’lgan ruhiy poklanish, o’zini kamolotga yetkazish, dunyoviy istaklardan xalos bo’lish, fikrni Xudo bilan bog’liq bo’lmagan har qanday narsadan tozalashning maxsus yo’li (*tariqa*)ni ishlab chiqdilar.

Mustahkamlash:
Ijodiy faoliyat
1. «Qalblar va fikrlar» ilmi (*ilm al-qulub va-l-xavotir*)ga kim asos solgan?
O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.
Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Dinlardagi bag‘rikenglik g‘oyalari

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Dinlardagi bag‘rikenglik g‘oyalari haqida bilimlarga ega bo’lish

b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK:Jahon va milliy dinlarda bag‘rikenglik g‘oyalari. Diniy manbalarda insonga, tabiatga bo‘lgan ezgu munosabatlarning aks etishini bilib, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliymadaniy an’analar va.h.k.) biladi, unga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi

-Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash , qo‘shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:”Aqliy hujum”

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

1. Missionerlik haqida nimalarni bilib oldingiz va qanday omillar missionerlikning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda?
2. Nima uchun O‘zbekistonda missionerlik qonun bilan taqiqlangan?
3. Nega O‘zbekiston fuqarolari missionerlikdan ogoh bo‘lishlari lozim?
4. Respublikamizda missionerlik bilan shug‘ullanganlik uchun qanday jazo choralari belgilangan?
5. *Nima uchun sektalarning tuzog‘iga ilinib qolmaslik kerak?*

Yangi mavzu bayoni:

1991-yil

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan Ramazon va Qurbon hayitlari dam olish kuni deb e’lon qilindi va bu an’ana muntazam ravishda davom etib kelmoqda.

Ilk bora 350 nafar O‘zbekiston fuqarosi haj ibodatini ado etishga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkich yildan yilga ortib borib, hozirgi kunda yiliga 5000 dan ortiq ziyoratchilarimiz haj ibodatini, qariyb 6000 ziyoratchi umra ibodatini ado etib kelmoqdalar.

1992-yil

29-30-aprel – Toshkent shahrida Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasining ikkinchi yeparxial qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

Sentyabr – O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi “Jo‘ybori Kalon” (Buxoro shahri), “Xoja Buxoriy” (Qashqadaryo viloyati), “Sayyid Muhyiddin Maxdum” (Andijon viloyati) va “Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy” (Nukus shahri) islom o‘rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko‘rsata boshladi.

1993-yil

2-may – Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash maqsadida nemis Yevangel-lyuteran cherkovi Kirxasini “Vidergeburt” Nemis madaniyat markaziga maqsadga muvofiq tarzda ishlatish uchun berish” haqidagi 138-F-sonli farmoyishi qabul qilindi.

16-18-sentyabr – Buxoroda Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yillik tantanalari nishonlandi.

30-oktyabr – Toshkentda Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-ma’rifiy anjuman bo‘lib o‘tdi.

22-noyabr – O‘zbekiston musulmonlari idorasining 96-qarori bilan “Xadichai Kubro” (Toshkent shahri) nomli ayol-qizlar islom o‘rta maxsus bilim yurti faoliyat ko‘rsata boshladi.

Mustahkamlash:

Nuqtalar o’rniga kerakli yilni qo’ying va to’g’ri javobni toping?

…..18-noyabr – Samarqand shahrida Xoja Ahror Valiy tavalludining 590 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.1994-yil,1996- yil,2000-yil,2016-yil

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X _____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Yurtimiz mutafakkirlarining ilm- fani rivojiga qo'shgan hissasi.

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Yurtimiz mutafakkirlarining ilm- fani rivojiga qo'shgan hissasi

haqida bilimlarga ega bo'lish

b) Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg'ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash , Yurtimiz mutafakkirlarining ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi haqida tarixiy bilimlari asosida munosabat bildira oladi.

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:"Aqliy hujum"

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so'rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash. Uy vazifasi asosida.

Yangi mavzu bayoni:

Yurtimiz allomalarining asarlarida ham diniy bag'rikenglikka oid fikrlarni ko'plab topish mumkin.

O'zga din vakillari bilan yonma-yon yashab kelgan xalqimizda diniy bag'rikenglik faqat zarurat keltirib chiqargan ehtiyoj emas, balki hayot tarziga singib ketgan o'ziga xos fazilat ekaniga ishonch hosil qilish mumkin.

Buni yurtimizda yahudiylik, xristianlik va boshqa dinlarga bo'lgan munosabatning tarixiy va zamonaviy holati ham tasdiqlaydi Tarixan Markaziy Osiyo turli madaniyatlarning o'zaro uchrashuvi, ta'siri va boyishiga imkoniyat yaratgan hududlardan hisoblanadi. Sharqni G'arb bilan birlashtirib turgan Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyodan o'tgani buning uchun qulay sharoit yaratgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar yahudiylarning Markaziy Osiyoda paydo bo'lish tarixini milodning birinchi asrida vujudga kelgan "Buyuk ipak yo'li" bilan bog'laydilar.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr mintaqasiga Erondan yahudiy jamoalari koʻchirib keltirilgan.

Mintaqa yahudiylari Buxoro amirligi hududlarida yashaganliklari tufayli “Buxoro yahudiylari” nomi bilan tanilgan boʻlsalar-da, ularning asosiy qismi Samarqandda yashagan.

Markaziy Osiyo yahudiylari mintaqa aholisi bilan shu darajada uygʻunlashib ketganlarki, ular turkiy-forsiy shevada soʻzlashadilar. Shuningdek, ularning kiyimi, taomlari, urf-odatlari, musiqiy madaniyati va yashash tarzida mintaqa aholisiga xos unsurlar seziladi.

Mustaqillikka erishilganidan soʻng barcha dinlarga, shu jumladan, yahudiy diniga erkin e’tiqod qilish uchun barcha sharoitlar yaratib berildi.

Hozirda respublikamizda Buxoro hamda Yevropa (ashkenazi) yahudiylarining milliy madaniy markazlari, sakkizta yahudiy diniy jamoasi faoliyat koʻrsatib turibdi.

Markaziy Osiyoda xristianlik tarixi ilk havoriylar davri bilan bogʻlanadi. Bu hududga Iso Masih oʻgitlarining kirib kelishi va mahalliy xalqlarning xristianlikka targʻib qilinishi apostol Fomaning “Hind oʻlkalari” yoʻnalishi boʻyicha qilgan safari davomida amalga oshirilgan.

X asrgacha Samarqand, Xorazm va Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari boʻlgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1056) Marvda pravoslav mitropoliyasi faoliyat koʻrsatgan.

XV asr boshlarida Temur saroyida boʻlgan Kastiliya elchisining guvohlik berishicha, Amir Temur Samarqandda turli din vakillarini yigʻib, ularga iltifot koʻrsatgan. Boshqa manbalarda keltirilishicha, xristianlarning muammolarini hal etish uchun mas’ul shaxs biriktirilgan.

Hukmdorlar bilan bir qatorda oddiy xalqning ham oʻzga din vakillariga bagʻrikenglarcha munosabatda boʻlganini aniq tarixiy dalillar ham tasdiqlaydi. Misol uchun, XIX asrda Rossiyaning markaziy mintaqalaridan majburlab koʻchirilgan dehqonlar nochor ahvolga tushib qolganlarida, musulmon aholi ularga har tomonlama yordam koʻrsatgan. Oʻsha davr voqealarini koʻrgan ruhoniy Xariton “Mahalliy aholi nochor koʻchmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda boʻlmaganida, ularning aksariyati ochlik va muhtojlikdan oʻlib ketgan boʻlar edilar”, deb guvohlik bergan.

Istiqlol yillarida din sohasida chuqur oʻzgarishlar sodir boʻldi. Oʻzbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga oʻz e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular oʻrtasida qadimiy mushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1995-yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida “Bir samo ostida” shiori ostida xalqaro musulmon-xristian konferensiyasi oʻtkazildi. Turli dinlarning yurtimizga kirib kelishi yubileylari nishonlandi.

2016-yilning 1-yanvar holatiga koʻra, respublikamizda 16 dinga mansub 2223 ta diniy tashkilot, jumladan, 2049 ta islomiy hamda 174 ta noislomiy diniy tashkilot faoliyat koʻrsatmoqda.

Oʻzbekistonda islomdan boshqa quyidagi konfessiyalar rasman roʻyxatga olingan: Rus pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemis-lyuteran cherkovi, Arman-apostol cherkovi, Toʻliq injil xristianlari, Yevangel-xristian baptistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Yettinchi kun adventistlari, “Golos bojiy”, Iegovo shohidlari, Koreys protestant cherkovlari, Yahudiylik, Bahoiylik, Krishnani anglash jamiyati va Buddaviylik.

Bugun ular bir osmon ostida tinchlik va totuvlikda hayot kechirmoqdalar. **2004-yil**

21 dekabr – O‘zbekiston musulmonlari idorasida ko‘zi ojizlar uchun Brayl yozuvida 8 jildlik Qur’oni karim nashr etildi.

2007-yil

Yanvar – Islom Hamkorlik tashkiloti tarkibidagi muassasalardan biri – Ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha xalqaro Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkent shahri islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilindi. Ushbu munosabat bilan xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi.

8-iyun – Hazrati Imom majmuasining ochilishi bo‘lib o‘tdi.

2008-yil

Sentyabr – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

2012-yil

13-14-aprel – Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘zbekiston yeparxiyasi tashabbusi bilan o‘zbekistonlik fuqarolarning Isroil davlatidagi muqaddas qadamjolarga ziyorati tashkil etildi.

2014-yil

16-may – Samarqandda “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

1-oktyabr – Toshkent shahrida Minor jome masjidi ochildi.

Mustahkamlash:

1. Yurtimizda bag‘rikenglikning qaror topishiga qanday ijtimoiy-tarixiy omillar sabab bo‘lgan?
2. Markaziy Osiyoga yahudiylik dini qachon kirib kelgan?
3. Vatanimizga xristianlikning kirib kelish tarixi haqida so‘zlab bering.
4. Ajdodlarimizning bag‘rikengligiga oid qanday tarixiy dalillarni bilib oldingiz?

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: 2007-yilda Islom Konferensiyasi Tashkiloti qoshidagi Fan, ta’lim va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi (AYSESKO) tomonidan poytaxtimiz Toshkent shahri “Islom madaniyatining poytaxti” deb e’lon qilindi. Mavzuni o’qish, savol tuzish

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: **O’zbekistonning din niqobidagi ekstremizm va terrorizimga qarshi kurashdagi o’rni.**

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: O’zbekistonning din niqobidagi ekstremizm va terrorizimga qarshi kurashdagi o’rni haqida bilimlarga ega bo’lish

b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar: I. TK-tayanch kompetensiya

TK1- **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi** Inson ongi uchun kurash. Global tarmoqlardagi tahdidlar. Terrorchilarning internetdan foydalanish yo‘llarini biladi mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.)foydalana oladi;

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK2- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. OAVlarida berilayotgan ma’lumotlarga tarixiy bilimlari asosida munosabat bildira oladi.

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:Debat,”Aqliy hujum”

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash. .

1. Siz kuniga qancha vaqtingizni internet tarmog‘ida o‘tkazasiz?
2. Internet tarmog‘ida asosan qaysi saytlardan foydalanasiz?
3. Ijtimoiy tarmoqlar yoki mobil messenjerlarida guruhlar, botlar va kanallarga a‘zo bo‘lganmisiz?
4. Yaqinlaringiz sizning mobil telefon, kompyuter, planshetlaringizni nazorat qilib turishadimi?

Yangi mavzu bayoni: **Internet asri**

Terrorizm

Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biror-bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyi-lishga majbur qilish uchun zo‘rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishini ta’minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliya-tiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat – sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatga to‘sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish – o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) odam o‘lishiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lsa, – o‘n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o‘z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan bo‘lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. Birinchi Prezident I. A. Karimov diniy ekstremizm va fundamentalizm birinchi navbatda fuqarolarning islohotchi davlatga ishonchini yo‘qqa chiqarishda ko‘rinayotganligini qayd etgan. Bu bejiz emas, chunki o‘tish davri siyosiy tizimida davlat boshqaruv organlari yangidan shakllantirilgan. Siyosiy hayotga rahbarlik qilish tajribasi endi shakllanayotgan bir vaqtda hokimiyat organlari davlat boshqaruvi jilovini mustahkam qo‘lda tutib turish imkoniyatiga ega emas. Diniy ekstremistlar bunday qulay imkoniyatdan «unumli» foydalanishga intiladilar.Bunday xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida yaratilgan milliy g‘oya asoslari, buyuk davlat qurish kabilar mazkur aholi qatlamlari kuchini bunyodkorlikka, vayronkor g‘oyalar ta’siriga qarshi immunitet hosil qilishga yo‘naltirilgan.

1998 yilda Namangan viloyatidagi Ota Valixon masjidida in qurgan ayrim «islom rahnamolari»ning kirdikorlari ham fikrimizning bir isbotidir. Namangoniy taxallusini olgan Juma Xo‘jayev pokistonlik muhojir Amjet Ali ta’sirida Farg‘ona vodiysida islom ekstremizmining ashaddiy oqimi - vahhobiylikni keng targ‘ib qildi.O‘zbekistonda o‘rnashib olgan vahhobiylarning mash’um rejasi xalqni mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘atib, jihod, ya’ni dahriylarga qarshi urushga da’vat etish va kelajakda islom davlatini yoki sobiq Qo‘qon xonligini qayta tiklash edi. Vahhobiylik ekstremistik oqimidagilar bu maqsadlarini amalga oshirish uchun «Islom lashkarlari» va «Adolat» uyushmalarini tashkil etganlar. 1991-1992 yillarda Namangan viloyatida «Otavalixon» jome masjidida Abdulla O‘tayev, Tohir Yo‘ldoshev boshchiligida 100-200 kishidan iborat guruh tuzilgan. «Adolat» harakati faollari mahallalarda ko‘ngilli nazoratchilar guruhlarini tashkil etanlar. Guruhlar a’zolari kechki payt mahallasidan tashqarida yurgan odamlarni to‘xtatib so‘roq qilish, mast kishilarni masjid oldidagi ustunlarga bog‘lash usullarini qo‘llagan. 1992 yil mart-aprel oylarida ularning noqonuniy faoliyati tugatilgan.

O‘zbekistonga noqonuniy suqilib kirib, filialini tashkil etgan diniy ekstremistik va fundamentalistik tashkilotlardan yana biri - «Hizbut-tahrir al-islomiy» (Islom ozodlik partiyasi). Partiya 1953 yil Falastinda paydo bo‘lgan. Unga shayx Taqiyiddin Nabahoniy (1909-1979) asos solgan. Tashkilot filiallarining asosiy qismi G‘arbiy Yevropa davlatlarida faoliyat olib boradi. Davlatimiz rahbarining ziyrakligi va hushyorligi tufayli vahhobiylar, hizbutchilar, akromiylar singari diniy ekstremistik va fundamentalistik tashkilotlarning faoliyati uzoq davom etmadi. 1992 yilda ularga zarba berildi. Biroq bunday tashkilotlarning ayrim yo‘lboshchilari - Juma Xo‘jayev (Namangoniy), Tohir Yo‘ldoshev kabilar Tojikiston va Pokistonga qarab qochganlar. va xorijlik janggari islom ekstremistlari tomonidan qo‘llab -quvvatl anganlar.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 184-modda

Mustahkamlash: 1. Nima sababdan biz yashayotgan davr “Internet asri” deb atalmoqda?
2. O‘zbekistonda qancha odam internet tarmog‘idan foydalanadi?
3. Terrorchi tashkilotlar internetdagi asosan qaysi vositalar orqali targ‘ibot olib bormoqdalar?
4. Tavsiya etilmaydigan saytlarning umumiy belgilari qanday? 5. Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mobil messenjerlardan foydalanayotganda qanday qoidalarga amal qilish muhim hisoblanadi?
6. Internetning terrorchilar uchun qulay jihatlari nimalardan iborat?
7. Terrorchi va aqidaparast kuchlar internetdan qanday maqsadlarda foydalanmoqdalar?

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 155-modda

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish

Ko’rib chiqildi: _____ X.Boltaboyeva

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: **Kibermakonda din va axobrt iste’moli**

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Kibermakonda din va axobrt iste’moli haqida bilimlarga ega bo’lish
b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.
c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar: I. TK-tayanch kompetensiya

TK1- **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi** Inson ongi uchun kurash. Global tarmoqlardagi tahdidlar. Terrorchilarning internetdan foydalanish yo‘llarini biladi mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.)foydalana oladi;

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK2- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. OAVlarida berilayotgan ma’lumotlarga tarixiy bilimlari asosida munosabat bildira oladi.

Dars turi: Yangi tushuncha berish.
Dars metodi:Debat,”Aqliy hujum”
Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material
Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash. .

1. Siz kuniga qancha vaqtingizni internet tarmog‘ida o‘tkazasiz?
2. Internet tarmog‘ida asosan qaysi saytlardan foydalanasiz?
3. Ijtimoiy tarmoqlar yoki mobil messenjerlarida guruhlar, botlar va kanallarga a‘zo bo‘lganmisiz?
4. Yaqinlaringiz sizning mobil telefon, kompyuter, planshetlaringizni nazorat qilib turishadimi?

Yangi mavzu bayoni: **Internet asri**

Biz yashayotgan davr ko‘p manbalarda “internet asri” deb atalmoqda. Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari, xususan, internet kirib bormagan soha, hududni topish juda qiyin. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda dunyo aholisining 3,4 milliardi internet tarmog‘idan foydalanadi. O‘zbekistonda bu raqam 10,2 millionni tashkil etadi.

2000-yildan 2015-yil oxiriga qadar dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 7 barobarga oshib, ular dunyo aholisining 43 foizini tashkil qildi.

Internetning foydalari juda ko‘p. U masofalarni yaqinlashtiradi, ma’lumotlarni tez va sifatli olishga xizmat qiladi. U ilm manbai vazifasini ham bajaradi. Afsuski, g‘araz niyatli insonlarning qo‘lida internet buzg‘unchilik, jaholat, axloqsizlikni tarqatish quroliga aylanmoqda. Jahon veb-auditoriyasining 45 % ni 25 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etishi hisobga olinsa, internetdagi tahdidlarning asosan bolalar, o‘smirlar va yoshlarga qaratilgani ayon bo‘ladi.

Masalan, bugungi kunda yer yuzida 42 % bolalar va o‘smirlar behayo saytlarga qaram bo‘lib qolgani, 38 % bolalar zo‘ravonlik ruhidagi, 26 % bolalar esa millatchilikni targ‘ib qiluvchi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borayotgani haqidagi ma’lumotlar kishini tashvishga solmay qo‘ymaydi. Internet tarmog‘idan turli diniy tashkilotlar ham foydalanmoqdalar. Biroq, ularning barchasi ham internetdan faqat xayrli maqsadlarda foydalanayotgani yo‘q.

Afsuski, internet tarmog‘idan turli ekstremistik, terroristik, missionerlik bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar ham foydalanmoqdalar. So‘nggi yillarda terroristik tashkilotlar g‘oyalarini targ‘ib-tashviq qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga o‘sdi. 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanayotgan saytlar soni esa 10 000 dan ortdi. Missionerlarning esa minglab saytlari mavjud.

Bunday internet saytlar to‘satdan paydo bo‘ladi, bir oz vaqt o‘tgach esa yo‘qoladi. Ayni paytda, mazmunini o‘zgartirmagan holda, nomlanishini tez-tez o‘zgartirib turadi.

Terrorchilar uchun internetning qulay jihatlari nimada?

1. Internetga kirishning osonligi.
2. Foydalanuvchilar sonining ko‘pligi.
3. Aloqaning sirliligi. 4. Tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklanganligi.
5. Axborotlar qisqa muddatda keng makonda tarqalishi.

6. Sarf-xarajatlarning bir necha bor kamligi. Terrorchilarning internetdagi maqsadlari quyidagilardan iborat:
– targʻibot va tashviqot maqsadida maʼlumot tarqatish;
– tarmoq va shahobchalarni tashkil etish;
– aʼzolik va xayriya badallarini yigʻish hamda ulardan foydalanish;
– ytangi aʼzolarni yollash;
– terrorchilarni oʻqitish va koʻrsatmalar berish;
– yangi terrorchilik harakatlarini rejalashtirish va boshqarish.
Mazkur imkoniyatlar terrorchi tashkilotlarning internetdagi faoliyatlarini kuchaytirishlariga sabab boʻlmoqda. Maʼlumotlarga koʻra, “ISHID”, “al-Qoida” kabi yirik terrorchi tashkilotlar oʻz targʻibotining 90 foizini internet tarmogʻi orqali amalga oshirmoqda.

Bunda ular asosan 3 xil uslubdan foydalanishmoqda:
1. Oʻz gʻoyalarini targʻib qiluvchi saytlar ochish;
2. Ijtimoiy tarmoqlarda (facebook.com, odnoklassniki.ru, twitter.com, instagram.com, vkontakte. ru) barcha tillarda diniy sahifalar, guruhlar tashkil qilish;
3. Mobil messenjerlarda (Telegram, WhatsApp, Viber, IMO) oʻziga jalb qiladigan diniy nomlardagi guruhlar, botlar, kanallar tuzish. Mazkur saytlar, sahifalar (profillar), guruhlar (gruppalar), botlar va kanallarga jozibali diniy nomlar berilib, bir qarashda ularning ekstremistik oqimlarga oid ekanini payqash qiyin. 1. “.uz” domenidan boshqa domendagi (“.com”, “.org”, “.net”,“.info”, “.biz”, “.tv”) barcha diniy-islomiy mazmundagi saytlar;
2. Oʻzbekiston Respublikasida faoliyati taqiqlangan barcha diniy-ekstremistik tashkilotlarga tegishli va ularga moyillik bildiruvchi saytlar;
3. “Jihod”, “shahidlik”, “hijrat”, “kufr” kabi tushunchalarga koʻp urgʻu beruvchi saytlar;
4. Yurtimizda kechayotgan barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy jarayonlarni keskin va noxolis talqin qiluvchi saytlar;
5. Yuklab olish mumkin boʻlgan, ammo ekstremistik mazmunga ega turli audio, video va elektron shakldagi kitoblarni saqlovchi saytlar;
6. Koʻrinishdan beozor, biroq hanafiy mazhabiga zid targʻibot ishlarini olib boruvchi yoki unga raddiya beruvchi saytlar.
Afsuski, bugungi kunda yigit-qizlarimiz orasida internet tarmogʻidagi puch daʼvatlar taʼsiriga tushib qolganlar kuzatilmoqda. Baʼzi yoshlarimiz internet orqali oʻzini “Islom davlati” deb atayotgan terrorchi tashkilot aqidaparast guruhlari taʼsiriga tushib qolishi, mutaassib shaxslarning maʼruzalarini diskda yoki qoʻl telefoni xotirasida saqlab, tinglab yurish holatlari mavjud. Ayniqsa, soʻnggi vaqtda hatto oʻsmir yoshdagi bolalar Suriya, Iroq kabi mamlakatlardagi jangarilarning faoliyatini targʻib qiluvchi materiallarni telefonda qoʻlma-qoʻl qilayotganlari sir emas.
Mavjud qonunchiligimizga binoan bunday holatlar huquqbuzarlik hisoblanadi. Shunday ekan, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar hamda

mobil messenjerlardan foydalanayotganda quyidagi qoidalarga amal qilish muhim hisoblanadi:
– faqat “.uz” domenidagi diniy-ma’rifiy saytlarga kirish;
– ijtimoiy tarmoqlarda, mobil messenjerlarda manbasi ma’lum bo‘lmagan diniy guruhlar, sahifalar, O‘zbekistondan tashqarida bo‘lgan soxta “ulamolar”ning shaxsiy sahifalariga a’zo bo‘lmaslik;
– ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish kishilar bilan tanishmaslik, ularga shaxsiy ma’lumotlarni, telefon raqamlarni, uy-manzilini bermaslik;
– ijtimoiy tarmoqlar, mobil messenjerlar, YouTube kabi saytlardan manbasi noma’lum bo‘lgan diniy ma’ruzalar, qo‘shiqlar (nashidalar), diniy ruhdagi roliklar, ayniqsa, jangarilar tomonidan amalga oshirilayotgan jang-u jadal, xunrezliklar aks etgan video va audio materiallarni yuklab olmaslik;
– tarmoqdan foydalanish jarayonida yuzaga kelgan savol va muammolar bo‘yicha darhol ustozlarga murojaat qilish. “...diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish agar ma’muriy jazodan so‘ng sodir etilgan bo‘lsa, eng kam ish haqining 100-200 barobari miqdorida jarima to‘lash yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 244-modda, 3-band

“ . . . d i n iy m a z m u n - dagi materi-allarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish eng kam ish haqining 50-100 barobari miqdorida jarima to‘lash bilan jazolanadi”.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 184-modda

Mustahkamlash: 1. Nima sababdan biz yashayotgan davr “Internet asri” deb atalmoqda?
2. O‘zbekistonda qancha odam internet tarmog‘idan foydalanadi?
3. Terrorchi tashkilotlar internetdagi asosan qaysi vositalar orqali targ‘ibot olib bormoqdalar?
4. Tavsiya etilmaydigan saytlarning umumiy belgilari qanday? 5. Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mobil messenjerlardan foydalanayotganda qanday qoidalarga amal qilish muhim hisoblanadi?
6. Internetning terrorchilar uchun qulay jihatlari nimalardan iborat?
7. Terrorchi va aqidaparast kuchlar internetdan qanday maqsadlarda foydalanmoqdalar?

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 155-modda

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: **Missionerlik yoshlar kelajagiga tahdid**

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Missionerlikni yoshlar kelajagiga tahdidi haqida bilimlarga ega bo'lish

b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg'ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar: I. TK-tayanch kompetensiya

TK ; Global maydonda din. Ma'naviy tahdidlardan himoyalanish choralari. Fikrga qashri fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish. Ilm-ma'rifat jaholatdan himoyalanish vositasi ekanligini bilib, Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi;

- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. OAVlarida berilayotgan ma'lumotlarga tarixiy bilimlari asosida munosabat bildira oladi.

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:Debat, "Aqliy hujum"

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so'rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

"Missionerlik" deganda nimani tushunasiz? "Prozelitizm" degan atama haqida eshitganmisiz? Ota-onangiz yoki ustozlaringiz "Ko'cha-ko'yda biror odam sizlarni suhbatga chorlab, abadiy hayot yoki muammolardan qutulish – najot yo'lini taklif qiladiganlarni gaplariga uchib yurmang", deb ogohlantirganmilar?

- Nima uchun missionerlik va prozelitizm salbiy faoliyat hisoblanadi?

Yangi mavzu bayoni:

Qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishish uchun, avvalo, zabt etmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishga intiladi.

Islom KARIMOV

Missionerlik (lotincha "missio" – "yuborish", "vazifa topshirish") – bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilishdir.

Prozelitizm esa – missionerlik faoliyati natijasida to'g'ridan to'g'ri biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqaroni turli usullar bilan o'z dinini qabul qilishga erishishdir. Demak, prozelitizm missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan shug'ullanishga harakat qilayotganlar orasida bahoiylar, krishnachilar va ko'plab diniy sektalar bor. Ammo, ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etmoqda. Ayniqsa, protestantlik zamonaviy missionerlikning asosiy homiysi bo'lib qolmoqda. Missionerlar o'z maqsadlariga erishish uchun xilma-xil va turli davrlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqqanlar. Masalan, xristian missionerlari buddaviylik, konfutsiylik, hinduiylik, islom, sintoiylik va daochilik dinlari keng tarqalgan hududlarga alohida e'tibor bilan qaraydilar. Ushbu dinlar tarqalgan hududlarning aksariyat qismida ulkan neft va gaz zaxiralari mavjudligi missionerlikdan ko'zlanayotgan g'arazli geosiyosiy maqsadlarning asl mohiyatini teranroq anglashga xizmat qiladi.

Belgilangan maqsadlariga erishish uchun missionerlar faoliyat olib boradigan mamlakatlarining o'ziga xos xususiyatlari, aholisining diniy qarashlari, turmush tarzi haqida batafsil ma'lumotlar to'plashga va ularga asoslanib ish olib borishga harakat qiladilar.

Missionerlik tashkilotlari tibbiyot va ta'lim sohalarida faoliyat olib borish, xayriya yordamlari ko'rsatish, uyma-uy yurib tashviqot olib borish, mahalliy tillarda xristianlikni targ'ib qiluvchi adabiyotlar, gazeta va jurnallar chop etib, tarqatish, radio va teledasturlar tayyorlash, kino mahsulotlari ishlab chiqarish orqali o'z qarashlarini targ'ib qilishga alohida e'tibor bermoqdalar.

Ular bugungi kunda koʻproq odamlarni oʻz saflariga jalb qilish va gʻayriqonuniy faoliyatlarini yashirish maqsadida “halqa-halqa” boʻlib faoliyat koʻrsatish, maxfiy yigʻilishlar oʻtkazish, oʻz tarafdorlarini sayohatchilar bayrogʻi ostida ekskursiyalarga olib chiqish va oʻsha yerda oʻz yigʻilishlarini tashkil etishga intilmoqdalar.

So‘nggi vaqtlarda missionerlar ma’lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, ular bilan maqsadli ishlashga harakat qilmoqdalar. Jumladan, ular asosiy e’tiborni aralash millat vakillaridan iborat oilalarning a’zolari, ilgari hech bir dinga e’tiqod qilmagan, og‘ir xastalikka, judolikka uchragan, moddiy va ma’naviy ko‘makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar. Missionerlik va prozelitizm juda jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Masalan, bizga qo‘shni bo‘lgan ayrim davlatlarda missionerlar ta’siriga tushib qolib dinini o‘zgartirgan kishilar vafot etganda jasadni qabristonga qo‘yish bilan bog‘liq muammolar kelib chiqmoqda.

Mayitning musulmon qarindoshlari o‘z jigarlarini musulmonlar mozoriga dafn etishni xohlaganlari, musulmonlar esa boshqa din vakilini o‘z qabristonlariga kiritishni istamaganliklari natijasida kelishmovchiliklar yuzaga kelmoqda.

Boshqa dinni qabul qilgan kishi o‘z o‘g‘lini xatna qildirishni xohlamagani, uning otasi esa, nabirasini musulmon urf-odatlariga ko‘ra xatna qildirishni istagani tufayli ota-bola o‘rtasida janjallar kelib chiqqani ham ma’lum. Xristian yoki boshqa dinni qabul qilgan qizning turmushga chiqishi ham muammoga aylanmoqda...

Bu kabi misollarni yana davom ettirish mumkin. Ammo shularning o‘zi ham missionerlik va prozelitizm harakatlari boshqa dinni qabul qilgan millat vakillari oilalarida nizo va janjallarning avj olishiga zamin yaratishini ko‘rsatadi.

Din milliy ma’naviyatning tarkibiy qismi, millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bir tilda gaplashadigan, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo‘lgan, ammo turli dinlarga yoki diniy yo‘nalishlarga e’tiqod qiladigan millatlar hamon ichki milliy birlikni ta’minlay olmayotgani, kichkina bir sabab qayta-qayta nizoli vaziyatlar va fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Missionerlik va prozelitizm g‘ayriqonuniy harakat ekan, unga nisbatan tegishli jazo choralari qo‘llanishi tabiiydir.

Respublikamizning Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hamda Jinoyat kodekslarida bu faoliyat bilan shug‘ullanganlik uchun tegishli jazo choralari belgilangan. Missionerlik harakatlari ortida diniy asosda millatni ichidan bo‘lib tashlashga qaratilgan g‘arazli maqsadlar yotadi

Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish

Nolegal diniy faoliyat bilan shug‘ullanish, diniy tashkilotlar rahbarlari-ning mazkur tashkilotlar ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortishi, ruhoniylar va diniy tashkilotlar a’zolari tomonidan bolalar va o‘smirlarning maxsus yig‘ilishlari, shuningdek, diniy marosimga aloqasi bo‘lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to‘garaklar hamda guruhlarni tashkil etish va o‘tkazish, shunday qil-mishlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa – eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, – eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 216[1]-moddasi konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi”.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 240-modda.

Mustahkamlash:

1. Missionerlik haqida nimalarni bilib oldingiz va qanday omillar missionerlikning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda?
2. Nima uchun O‘zbekistonda missionerlik qonun bilan taqiqlangan?
3. Nega O‘zbekiston fuqarolari missionerlikdan ogoh bo‘lishlari lozim?
4. Respublikamizda missionerlik bilan shug‘ullanganlik uchun qanday jazo choralari belgilangan?
5. Nima uchun sektalarning tuzog‘iga ilinib qolmaslik kerak?
O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.
Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Dinlarda hayot qadri

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Dinlarda hayot qadri haqida bilimlarga ega bo’lish

*b)*Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarda dunyo dinlari qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni qadrlash, turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarga yaxshi munosabatda bo'lish xislatlarini tarbiyalash. Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

TK:O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikning tarixiy ildizlari va hozirgi ko‘rinishi. O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan konfessiyalar haqida bilib, o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik

Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash , OAVlarida berilayotgan ma’lumotlarga tarixiy bilimlari asosida munosabat bildira oladi.

Dars turi: Yangi tushuncha berish.

Dars metodi:”Aqliy hujum”

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish
b) Davomatni aniqlash.
c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

1992-yil

29-30-aprel – Toshkent shahrida Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasining ikkinchi yeparxial qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

Sentyabr – O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi “Jo‘ybori Kalon” (Buxoro shahri), “Xoja Buxoriy” (Qashqadaryo viloyati), “Sayyid Muhyiddin Maxdum” (Andijon viloyati) va “Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy” (Nukus shahri) islom o‘rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko‘rsata boshladi.

Yangi mavzu bayoni:

1995-yil

Noyabr – Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yillik yubileylari o‘tkazildi.

1996-yil

10-12-oktyabr – Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasining tashabbusi bilan “Bir samo ostida” musulmon-xristian muloqoti Toshkent shahrida o‘tkazildi.

17-dekabr – Nemis Yevangel-lyuteranlar cherkovining O‘zbekistondagi ilk cherkovi (Kirxasi)ning 100 yilligi Toshkent shahrida nishonlandi.

1998-yil

1-may – O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunining yangi tahriri Oliy Majlisning o‘n birinchi sessiyasida qabul qilindi.

23-oktyabr – Samarqand shahrida Imom Buxoriyning 1225 yilligi tantanalari va xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi.

1999-yil

7-aprel – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent islom universitetini tashkil etish to‘g‘risida” PF-2282-sonli Farmoni qabul qilindi.

3-dekabr – Vazirlar Mahkamasining “Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 517-sonli qarori qabul qilindi.

2000-yil

14-16-sentyabr – YUNESKO “Jahon dinlari: tinchlik madaniyati yo‘lida” xalqaro konferensiyasi Toshkentda bo‘lib o‘tdi.

Noyabr – Imom Moturidiyning 1130 yilligi va Burhonuddin Marg‘inoniyning 910 yilligi tavalludi tantanalari nishonlandi.

2001-yil

30-mart – O‘zbekiston Bibliya kitob jamiyati tomonidan amalga oshirilgan “Sulaymonning hikmatlari kitobi”ning o‘zbekcha tarjimasi taqdimot marosimi o‘tkazildi.

2-may –“Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi” Abdulaziz Mansur tomonidan tayyorlandi va nashr etildi.

25-26-noyabr – Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasining 130 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish va ilmiy anjuman o‘tkazildi.

2003-yil
27-28-noyabr– Buxoro shahrida “Abduxoliq G‘ijduvoniy va tasavvuf” nomli ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi
. **Mustahkamlash:**
O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.
Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____
Mavzu: Dunyoviylik- dahriylik emas.
Dars maqsadi:
a) Ta`limiy maqsad: Mavzu haqida bilimlarga ega bo’lish
b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.
c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish
Shakllantirilayotgan kompetensiyalar: I. TK-tayanch kompetensiya
1.TK1- **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi** Diniy ekstremistik tashkilotlarning, geografik o‘choqlari, faoliyati va uslublari. Ularning jamiyat taraqqiyotiga tahdidi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashi. Ogohlik davr talabi ekanligini biladi hamda media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish;
II. FK-fanga oid kompetensiyalar
1.FK2- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. OAVlarida berilayotgan ma’lumotlarga tarixiy bilimlari asosida munosabat bildira oladi.
Dars turi: Yangi tushuncha berish.
Dars metodi:”Aqliy hujum” **,** Tushunchalar tahlili
Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash. Uy vazifasi asosida.

1.Diniy fundamentalizm deganda nimani tushunasiz?

2.Diniy ekstrimizm deganda nimani tushunasiz?

3.Mutaassiblik nima?

Yangi mavzuning bayoni:

Diniy ekstremizm va fundamentalizm barcha dinlarga xos xususiyatdir. Hozir u ijtimoiy hayotda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Masalan, G‘arb jamiyatlarida sekulyarizatsiya jarayonlari keng ko‘lamda ijtimoiy hayotga tatbiq etilganligi sababli Sharq davlatlaridagidek keskinlik kasb etmadi. Sharqda jamiyatning sekulyarizatsiya jarayonlari davom etmoqda va islom davlatlarida bu hali boshlang‘ich bosqich darajasidadir. Shuning uchun Sharqda bu jarayonlarning davlat xavfsizligiga tahdidini bartaraf etish maqsadida muayyan qonuniy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Sharqda dunyoviy taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatlar (jumladan, Turkiya, O‘zbekiston singari mamlakatlar)da diniy ruhdagi siyosiy partiyalar tuzish qonun bilan taqiqlangan. O‘zbekistonda diniy ekstremizm va fundamentalizmning ijtimoiy hayotda faollashuvining sabablari quyidagilardan iborat:

a) kommunistik mafkuraning yemirilishi sababli ma’naviy hayotda yuzaga kelgan bo‘shliq o‘rnini to‘ldirish zarurati;

b) sobiq Ittifoq davlatida din va dindorlarning ta’qib qilinganligi;

v) odamlarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi va etnik jihatdan o‘zining nasl-nasabini izlashning kuchayganligi;

g) ayrim ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar;

Jahon miqyosida, xususan O‘zbekistonda diniy ekstremizm islom ekstremizmi shaklida o‘ta keskin ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Islom ekstremizmi vakillari quyidagi guruhlarga bo‘linadi: birinchidan, islom ekstremistlari (buzg‘unchilari, desa to‘g‘riroq bo‘ladi) hozirgi zamon musulmonlari yashaydigan davlatlarning rahbarlarida musulmonchilikdan asar ham qolmagan, ular dahriylardir, degan da’vo bilan chiqadilar. Shuning uchun diniy ekstremistlar islom aqidalarini ijtimoiy hayotda qayta tiklash uchun qat’iy harakatga undaydilar;

ikkinchidan, ular islom, shariat qonunlarini mamlakat

miqyosida oʻrnatishga, binobarin, ochiqdan- ochiq, islom davlatini barpo etish uchun kurashga chaqiradilar. Islom ekstremizmi va fundamentalizmining Oʻzbekistonda 80-yillarning oxirlari va 90-yillarning boshlaridan yoyilishi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va fuqarolar totuvligiga jiddiy xavf tugʻdirdi. Mazkur xavfning qanchalik xatarli ekanligi Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida atroflicha bayon qilingan.Birinchi Prezident I. A. Karimov diniy ekstremizm va fundamentalizm birinchi navbatda fuqarolarning islohotchi davlatga ishonchini yoʻqqa chiqarishda koʻrinayotganligini qayd etgan. Bu bejiz emas, chunki oʻtish davri siyosiy tizimida davlat boshqaruv organlari yangidan shakllantirilgan. Siyosiy hayotga rahbarlik qilish tajribasi endi shakllanayotgan bir vaqtda hokimiyat organlari davlat boshqaruvi jilovini mustahkam qoʻlda tutib turish imkoniyatiga ega emas. Diniy ekstremistlar bunday qulay imkoniyatdan «unumli» foydalanishga intiladilar.Bunday xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida yaratilgan milliy gʻoya asoslari, buyuk davlat qurish kabilar mazkur aholi qatlamlari kuchini bunyodkorlikka, vayronkor gʻoyalar taʼsiriga qarshi immunitet hosil qilishga yoʻnaltirilgan.

1998 yilda Namangan viloyatidagi Ota Valixon masjidida in qurgan ayrim «islom rahnamolari»ning kirdikorlari ham fikrimizning bir isbotidir. Namangoniy taxallusini olgan Juma Xoʻjayev pokistonlik muhojir Amjet Ali taʼsirida Fargʻona vodiysida islom ekstremizmining ashaddiy oqimi - vahhobiylikni keng targʻib qildi.Oʻzbekistonda oʻrnashib olgan vahhobiylarning mashʼum rejasi xalqni mavjud tuzumga qarshi qoʻzgʻatib, jihod, yaʼni dahriylarga qarshi urushga daʼvat etish va kelajakda islom davlatini yoki sobiq Qoʻqon xonligini qayta tiklash edi. Vahhobiylik ekstremistik oqimidagilar bu maqsadlarini amalga oshirish uchun «Islom lashkarlari» va «Adolat» uyushmalarini tashkil etganlar. 1991-1992 yillarda Namangan viloyatida «Otavalixon» jome masjidida Abdulla Oʻtayev, Tohir Yoʻldoshev boshchiligida 100-200 kishidan iborat guruh tuzilgan. «Adolat» harakati faollari mahallalarda koʻngilli nazoratchilar guruhlarini tashkil etanlar. Guruhlar aʼzolari kechki payt mahallasidan tashqarida yurgan odamlarni toʻxtatib soʻroq qilish, mast kishilarni masjid oldidagi ustunlarga bogʻlash usullarini qoʻllagan. 1992 yil mart-aprel oylarida ularning noqonuniy faoliyati tugatilgan.

Oʻzbekistonga noqonuniy suqilib kirib, filialini tashkil etgan diniy ekstremistik va fundamentalistik tashkilotlardan yana biri - «Hizbut-tahrir al-islomiy» (Islom ozodlik partiyasi). Partiya 1953 yil Falastinda paydo

bo‘lgan. Unga shayx Taqiyiddin Nabahoniy (1909-1979) asos solgan. Tashkilot filiallarining asosiy qismi G‘arbiy Yevropa davlatlarida faoliyat olib boradi. Davlatimiz rahbarining ziyrakligi va hushyorligi tufayli vahhobiylar, hizbutchilar, akromiylar singari diniy ekstremistik va fundamentalistik tashkilotlarning faoliyati uzoq davom etmadi. 1992 yilda ularga zarba berildi. Biroq bunday tashkilotlarning ayrim yo‘lboshchilari - Juma Xo‘jayev (Namangoniy), Tohir Yo‘ldoshev kabilar Tojikiston va Pokistonga qarab qochganlar. va xorijlik janggari islom ekstremistlari tomonidan qo‘llab -quvvatl anganlar.

Mustahkamlash: Atamalar bilan ishlash.

Qiyomat – (arab. “tik turish”) ma’nolarni anglatsa, o‘liklarning qayta tirilishi vao‘rnidan turishi ma’nosida ishlatiladi.

Ravvin – yahudiy din arbobi. U yahudiy jamoasida diniy va oilaviy masalalarida hakamlik qiladi.

Safo – Makka shahrida Ka’ba yaqinidagi tepalik. Haj va Umra qiluvchilar Safo va Marva tepaliklari orasida yetti bor yugurishlari lozim.

Sahih hadis – (arab. “sog‘lom; to‘g‘ri”) olimlar tarafidan ishonchli, to‘g‘ri deb topilgan hadis.

Sahobiy – Rasululloh alayhis-salomni imon keltirgan holda ko‘rgan va shu musulmonlik holida vafot etgan kishi.

Sinagoga – yahudiylar ibodatxonasi.

Sunna – islomda “Payg‘ambar yo‘li”.

Tafsir – (arab. “bayon qilish”) Qur’on oyatlariga o‘ziga xos ravishda ma’no berish.

Tavof – Ka’baning atrofini aylanish.

Tavrot, Tora – (ivritcha – “ta’limot, qonun”) yahudiylik va xristianlik dinlarida tan olinadigan va “Bibliya” tarkibiga kiruvchi muqaddas manba. “Tavrot”ning muallifi sifatida Muso payg‘ambar ko‘rsatiladi. “Tavrot” besh kitob: “Ibtido”, “Chiqish”, “Levit”, “Sonlar” va “Ikkinchi qonun”dan iborat.

Tripitaka – (sanskr. “uch savat donolik”) buddaviylikning muqaddas kitobi.

Vahiy – ilohiyot bilan insonlarning payg‘ambarlar orqali muloqot yo‘li.

Vedalar (véda – “bilim”, “ta’limot”) – hinduiylik dinining sanskrit tilida yozilgan qadimiy muqaddas yozuvlari to‘plami.

Yangi Ahd – “Bibliya” qismlaridan biri. To‘rt “Injil”, Havoriylar faoliyati kitobi, 21 ta havoriyning nomalari va Yuhannoning “Vahiynomasi” ni o‘z ichiga olgan, 27 kitobdan iborat.

Zabur *– Dovud payg‘ambarga tushirilgan kitob. “Qadimgi Ahd” tarkibiga kiritilgan bo‘lib, turli qo‘shiq va madhiyalardan iborat.*

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mavzuni o’qish, savol tuzish

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Takrorlash

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: Mavzu haqida bilimlarga ega bo'lish

b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg'ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar: I. TK-tayanch kompetensiya

1.TK3- O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi: shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirib boradi, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi;

o'z hatti-harakatini adekvat baholaydi, o'zini nazorat qila biladi,halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'ladi;

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK2- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. muhim bo'lgan tarixiy toponomik atamalar mazmunini tushuntira oladi;

Dars turi: Takrorlash

Dars metodi:"Aqliy hujum"

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so'rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

1.Diniy fundamentalizm deganda nimani tushunasiz?

2.Diniy ekstrimizm deganda nimani tushunasiz?

3.Mutaassiblik nima?

Yangi mavzu bayoni:

O'rganilgan mavzularning tayanch atamalarin o'rganib tahlil qilish

Apostol (yunoncha – "elchi") – xristian ta'limotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan so'ng uning o'rnini egallagan).

Arafot (arab. "tanimoq, bilmoq" fe'lidan) – Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga ko'ra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo yerda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. Shuning uchun ham uni "Arafot" – "Tanishuv" deb ataganlar.

Bibliya (yunoncha – "kitoblar") – yahudiylik va xristianlik dinlarining asosiy muqaddas manbasi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan Bibliya "Qadimgi Ahd" va "Yangi Ahd"dan iborat bo'lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

Faqih – fiqh ilmining bilimdoni.

Farz – islom dini ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalil bilan bajarilishi talab etiladigan amallar.

Fiqh – (arab. "tushunish") shariat qonun-qoidalarini o'rganuvchi fan.

Hadis – (arab. "yangi; so'z") Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.

Hajarul asvad – (arab. “qora tosh”) Ka’baning janubiy-sharqiy burchagida yerdan 1,5 m. balandlikda o‘rnatilgan muqaddas tosh.
Harom – islom ta’limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat’iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal.
Ijtihod – islomda yangi paydo bo‘lgan diniy muammolarni hal qilishning o‘ziga xos usuli.
Ikona – xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular cherkovlarda ibodat buyumi bo‘lib xizmat qiladi.
Injil – (yunon. – “Evangelie”) “Yangi Ahd”dagi Mark, Matto, Luqo va Yuhannolardan rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda Iso Masihning hayot yo‘li va mo‘jizalari bayon qilingan.
Jabroil – Alloh bilan payg‘ambarlar o‘rtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.
Ka’ba – (arab. “kub”) Makka shahrida hozirgi davrda Baytul Harom (Muqaddas Masjid) ichida joylashgan islom dinining qiblasi hisoblanmish bino. Islom ta’limotiga binoan, uni buyuk to‘fondan so‘ng Ibrohim payg‘ambar o‘g‘li Ismoil bilan qayta tiklagan.
Kardinallar kollegiyasi *– Rim katolik cherkovidagi oliy kengash. Papa o‘rni bo‘shab qolganda uning vazifasini bajarish va yangi Papani saylash vazifalarini bajaradi.*
Kasta – (portugal. “irq, qavm, tabaqa”) muayyan kasb bilan shug‘ullanadigan, o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, tartib-qoidalari va h.k. bilan o‘zgalardan ajratilgan ijtimoiy guruh.
Kirxa (nemischa – “cherkov”) – lyuteran cherkovlarining nomi.
Konfessiya – (lot. “e’tirof, e’tiqod”) din, diniy e’tiqod.
Kostel (polyak., chex. – “cherkov”) – Rim katolik cherkoviga qarashli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama. Ushbu atama pravoslav yoki protestant cherkovlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.
Maxayana – (sanskr. “katta arava”) buddaviylikdagi yo‘nalish.
Mazhab – (arab. “yo‘l”) islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo‘nalishi.
Meditasiya – (lot. “fikrlash, o‘ylash”) shaxsning ruhiy faoliyatga chuqur berilish holati.
Mitropolit – (qad. yunon. “bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami”) pravoslav cherkovining poytaxt shaharlardagi oliy ruhoniylik unvoni.
Muboh – islom shariati qilish yoki qilmaslikni kishilar ixtiyoriga qo‘ygan amallar.
Muhaddis – (arab. “hadis so‘zlovchi”) hadislar bilan shug‘ullanuvchi olim.
Muqaddas rivoyatlar – Bibliya tarkibiga kirmagan, cherkov avliyolari tomonidan qabul qilingan hujjatlar va nomalar.
Muqaddas Ruh – xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri. Muqaddas Ruh dunyoning yaralishida ishtirok etgan, Bibi Maryam ham u orqali Isoga homilador bo‘lgan hisoblanadi.
Nirvana – (sanskr. “so‘lish”) buddaviylik va jaynizm diniy falsafalariga ko‘ra, ruhning sansara kishanlaridan to‘la ozod bo‘lishi va oliy maqomga erishishi.
Nizomulmulk – Saljuqiylar davlatining mashhur vaziri. U 1017-1092 yillarda yashagan va faoliyat ko‘rsatgan. Davlat boshqaruviga oid “Siyosatnoma” asarini yozgan.
Ota Xudo – xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri va asosiysi. Ota Xudo dunyoni yaratgan bo‘lib, uchlikning qolgan ko‘rinishlari (O‘g‘il Xudo va Muqaddas Ruh) undan kelib chiqqan deb ishoniladi.
Pastor (lotincha – cho‘pon) – protestantlikdagi cherkov rahbari. Pastorlar ommaviy ibodatlarda ma’ruzalar o‘qish va cherkovning ichki faoliyatini boshqarish bilan shug‘ullanadi.

Patriarx – (qad. yunon. “ota, asos soluvchi”) Pravoslav cherkovidagi oliy diniy martaba bo‘lib, undagi avtokefal – mustaqil cherkovlar boshliqlari shu nom bilan ataladilar.

Qadimgi Ahd *– Bibliyaning qismlaridan biri. “Tavrot” (Musoning 5 kitobi), “Zabur” va boshqa kitoblardan iborat, jami 39 kitobni o‘z ichiga oladi.*

Mustahkamlash:

Atamlar bahsi

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.

Uyga vazifa: Mustahkamlash.

Ko’rib chiqildi:_____

Sinf: X_____ Din tarixi Sana: _____

Mavzu: Nazorat ishi

Dars maqsadi:

a) Ta`limiy maqsad: O’rganilgan bilimlarni sinash.

b)Tarbiyaviy maqsad: Yurtga fidokorlik, uni asrash kabi tuyg’ularni shakllantirish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: Tarixiy bilimlarini shakllantirish

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar: I. TK-tayanch kompetensiya

1.TK3- O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib boradi, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi;

o‘z hatti-harakatini adekvat baholaydi, o‘zini nazorat qila biladi,halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘ladi;

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK2- Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. muhim bo‘lgan tarixiy toponomik atamalar mazmunini tushuntira oladi;

Dars turi: Nazorat

Dars metodi:”Aqliy hujum”

Dars jihozi: Darslik , bukletlar, xarita, tarqatma material

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish

b) Davomatni aniqlash.

c) Dunyo yangiliklarini so’rash

O`tilgan mavzuni mustahkamlash.

1.Diniy fundamentalizm deganda nimani tushunasiz?

2.Diniy ekstrimizm deganda nimani tushunasiz?

3.Mutaassiblik nima?

Yangi mavzu bayoni:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalari vijdon erkinligi masalalariga bag‘ishlangan?

a) 10-, 12-moddalari c) 18-, 30-moddalari

b) 28-, 40-moddalari d) 18-, 31-moddalari

2. Din niqobidagi ekstremizm deganda nimani tushunasiz?

a) diniy yo‘nalishdagi keskin c) diniy niqob ostida sodir etiladigan harakat yoki faoliyat jinoyat
b) keskin harakatlar majmuasi d) to‘g‘ri javob yo‘q

3. Nega terrorizm “asr vabosi” deb ataladi?

a) katta talofatlar keltirgani uchun c) uni oldindan bartaraf etish imkoni bo‘lmagani uchun
b) bu illatga qarshi hozirda hech qanday d) to‘g‘ri javob yo‘q choralar ijobiy samara bermayotgani uchun

4. Terrorizm va ekstremizm o‘rtasida qanday farq bor?

a) hech qanday farq yo‘q c) birinchisi harakat, ikkinchisi oqibat
b) birinchisi natija, ikkinchisi d) birinchisi mafkura, ikkinchisi tayyorgarlik jinoyat

5. Xristianlikda ekstremistik faoliyat mavjudmi?

a) mavjud c) mavjud emas
b) faqat turli konfessional ziddiyatlar d) to‘g‘ri javob yo‘q

6. Missionerlik nima?

a) bir dindan ikkinchisiga og‘dirib olishi
c) bir konfessiyadagilarni boshqa dinni qabul qilishga undash
b)fuqarolarni dinga targ‘ib qilishlari
d) fuqarolarni diniy yo‘nalishdagi faoliyati

7. Nurchilik ekstremistik tashkiloti qayerda tashkil etilgan?

a) Turkiyada c) Tojikistonda
b) Hindistonda d) Afg‘onistonda

8. O‘zbekistonda “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

a) 2000-yil 15-dekabrda c) 2004-yil 6-iyulda
b) 1999-yil 8-dekabrda d) 1999-yil 16-fevralda

9. 1999-yilda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari kim tomonidan sodir etilgan?

a) Hizbut-tahrir c) Turkiston islom harakati
b) vahhobiylar va Nurchilar d) barcha javoblar to‘g‘ri

10. 2005-yilda Andijonda sodir etilgan terrorchilik harakatlarini qaysi tashkilot sodir etgan?

a) Turkiston islom harakati c) Vahhobiylar
b) jamoati tablig‘ d) Akromiylar

11. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning qaysi moddasida missionerlik faoliyati taqiqlanishi qayd etilgan?

a) 5-moddasida c) 22-moddasida
b) 8-moddasida d) 28-moddasida

12. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish agar ma’muriy jazodan so‘ng sodir etilgan bo‘lsa, qanday javobgarlikka asos bo‘ladi?

a) jinoiy c) ma’muriy
b) fuqaroviy d) intizomiy

13. “Bir ...ga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati, shunday harakatlar uchun ... qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, – eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”, nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘g‘ri qo‘ying.

a) konfessiya, ma’muriy jazo

b) fuqarolik, ma’muriy jazo
c) din, jinoiy javobgarlik
d) millat, ma’muriy jazo
Mustahkamlash:
Apostol (yunoncha – “elchi”) – xristian ta’limotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan so‘ng uning o‘rnini egallagan).
Arafot (arab. “tanimoq, bilmoq” fe’lidan) – Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga ko‘ra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo yerda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. Shuning uchun ham uni “Arafot” – “Tanishuv” deb ataganlar.
Bibliya (yunoncha – “kitoblar”) – yahudiylik va xristianlik dinlarining asosiy muqaddas manbasi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan Bibliya “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd”dan iborat bo‘lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

O`quvchilarni baholash: Faollar rag’batlantiriladi.
Uyga vazifa: Mustahkamlash.

Ko’rib chiqildi:_____